



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, so'z va matbuot erkinligi, ochiqlik tamoyilini mustahkamlashga qo'shayotgan munosib hissasi, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, Yangi O'zbekistonda erishilayotgan ulkan yutuqlarni keng targ'ib etishdagi katta xizmatlari, yuqori malakali, zamonaviy jurnalist kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist” faxriy unvoni bilan

Doniyorov Salim Musurmonovich — “Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati bosh muharriri

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan
Mirzaaliyev Ikboljon Mirzakari-movich — “Jadid” gazetasi bosh muharriri

“Do'stlik” ordeni bilan
Amangeldiyeva Raixan Kdir-bayevna — O'zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasining Nukus teleradiomarkazi filiali tasvir yozish guruhi katta elektr mexanigi, Qoraqalpog'iston Respublikasi
Kenjayeva Zoxida Abdullayevna — To'raqo'rg'on tumani “Davr” gazetasi muharriri, Namangan viloyati
Matyakubov Kamol — “Adolat” gazetasi muxbiri
Mirsharipov Farxodjon Arislonovich — Farg'ona viloyati teleradiokanalini bosh muharririning o'rinbosari, So'x telekanali guruhi rahbari
Oripov Shuxratjon Orip o'g'li —

“Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining axborot xizmati rahbari

Raximov Abdijalol Abdiziyatovich — Chinoz tumani “Chinoz hayoti” gazetasi bosh muharririning o'rinbosari, Toshkent viloyati

Titchuk Andrey Georgiyevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Dunyo bo'ylab” telekanali axborot-informatsion dasturlar muharririyati montajchisi

Urinboyev Saydulla Mardonovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va ma'rifat” telekanali teleoperatorlar guruhi teleoperatori

Xasanov Xaydar Xatamjanovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston 24” ijodiy birlashmasi direktori o'rinbosari

Hasanov Ro'zimboy — “XXI asr” gazetasining Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati bo'yicha muxbiri

II darajali “Sog'lom avlod uchun” ordeni bilan

Nurmatov Akbar Normatovich — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining YUNESKO va ixtisoslashgan media kafedrasini mudiri

Xolbekova Baxor Shayimovna — “Ishonch” va “Ishonch-Doverie” gazetalarining Sirdaryo viloyati bo'yicha muxbiri

“Sog'lom turmush” medali bilan
Djumayev Ibraxim — Navoiy viloyati “Salomatlilik” gazetasi muharriri

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

G'iyosov Mirali Abdulloh o'g'li — Toshkent shahridagi “Sharait plus”

nodavlat notijorat tashkiloti loyiha menejeri

“Shuhrat” medali bilan
Abilov Fazliddin Ibragimovich — “Xalq so'zi” va “Народное слово” gazetalarini tahririyati bosh muharririning o'rinbosari

Avazov Dilmurod Batirovich — “O'riat Dono” radiosi musiqa muharriri

Adilova Munojot Asrorovna — “Daryo.uz” internet nashrining tahrir bo'limi musahhihi

Asanov Eldar Enverovich — “Asanov formati” telegram kanali asoschisi, blogger
Ahatov Sobit Temirovich — “Xabar.uz” internet nashrining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalar bo'limi muharriri

Gapirova Nigora Umurzakovna — “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining muqovallash sexi muqovallovchisi

Djumayev Xidoyat Inoyatovich — Buxoro viloyati teleradiokanalining ijodiy ishlab chiqarish guruhi teleoperatori

Karshiyev Aziz Rajabovich — “Kun.uz” internet nashri muharriri

Koraboyev Shamshidin — Farg'ona viloyati ommaviy axborot vositalari faxriylar kengashi faoli, fotosuratchi

Madatova Zilola Muxamadaliyevna — “Ma'rifat” gazetasi bosh muharririning o'rinbosari

Makarenko Nikita Anatolyevich — Ijtimoiy tarmoqlardagi “Effekt Makarenko” sahifasi asoschisi, blogger

Mamatrayimov Xolmumin Norkobilovich — O'zbekiston Milliy axborot agentligining Surxondaryo viloyati bo'yicha sharhlovchisi

Muminova Gulrx Komilovna — Samarqand viloyati “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarini tahririyati maxsus muxbiri

Muslimov Shuxrat Zikrulaiyevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston MTRK teleradiomarkazi” davlat muassasasi televideniye va radio ko'chma texnika xizmati boshlig'i

NurAhmad Hojiboy o'g'li — Toshkent shahridagi “SAS-Media” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari

Rabbimov Kamoliddin Muxiddinovich — “Kamoliddin Rabbimov” telegram kanali asoschisi, siyosatshunos va blogger

Raximov Sarvarjon Xamidjonovich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston 24” ijodiy birlashmasi siyosiy sharhlovchisi

Rashidova Nargizaxon Rashidovna — “Mening yurtim” telekanali efiga uzatish bo'limi muharriri

Sakayeva Elina Ibragimovna — “Gazeta.uz” internet nashri muharriri

Samatova Salima Abdinazarovna — Kasbi tumani axborot-kutubxona markazining abonement va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi mutaxassisi, Qashqadaryo viloyati

Xamidov Xayrulla Ubaydul-layevich — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Sport” ijodiy birlashmasi sharhlovchisi

Sherova Laziza Shomilovna — “O'zbekiston ovozi” gazetasining parlament faoliyati bo'limi mudiri

Yaqubjonova Nilufar Oybekovna — Andijon viloyati teleradiokanalining radio guruhi katta muharriri

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV

*Toshkent shahri,
2025-yil 26-iyun*

VATAN MANZUMASI

Rustam MUSURMON

FAXRIYA

Odami Otaning nasliga beshik bo'lgan tog'larim,
Moma Havoning vasliga oshiq bo'lgan bog'larim,
Avliyolar ishi kelgan mo'tabar tuproqlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim!

Jayhun!
Sayhun!
Shahr-u kentlarimga ona bo'lgan suvlarim,
Tuproq qal'a, Ayoq..., Ellikqal'a bo'lgan suvlarim,
Dehqon yerda undirgan ilk dona bo'lgan suvlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim!

Kunduz quyosh, kechalari oy bergan-ey, oy bergan,
Qirq kechalab qo'noq berib, to'y bergan-ey, to'y bergan,
Mehmonlarga uy to'ridan joy bergan-ey, joy bergan,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim!

Qilich sermab, g'animlardan qasos olgan dashtlarim,
Yov boshini qonga to'lgan meshga solgan gashtlarim,
Yurakdagi g'ashlarim-ay, qonimdagi shashtlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim!

Qoyalarning qoshlariga parchinlangan xatlarim,
Qabrlarning toshlariga bitilgan hikmatlarim,
Elni sevib, yurtini sevib yongan aziz zotlarim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim!

Cho'ponlarim boqib yurgan suruv-suruv qo'ylarim,
Yaylovlarda kishnab yurgan yilqilarim, toylarim,
Sigir sog'ib, o'rmaq o'rgan suluvlarim — oylarim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim!

Konlarga kon, kumush bergan, tilla bergan yerlarim,
Tut og'ochdan soz bergan ham pilla bergan yerlarim,
Bahor, kuz-u qish bergan ham chilla bergan yerlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim!

Vatan uchun jon ayamas kishi bor-ey, kishi bor,
Yelkasiga qo'ngan Humo qushi bor-ey, qushi bor,
Elim degan, yurtim degan ishi bor-ey, ishi bor,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay Vatanim!

DIL IZHORI



TILAK va ISTAK

Jurnalistikaga qiziqish o'quvchilik yillarimdan boshlangan. O'sha kezlari juda ko'p kitob o'qirdim. Kitobga ishtiyoq asta-sekin yozishga qiziqish uyg'otgan. Yuqori sinflarda tuman, viloyat va respublika gazetalariga “dalalardan daraklar” tarzida maqola va xabarlar jo'nata boshlaganman.


U paytda tahririyatga kelgan har bitta maqolaga, albatta, javob yozilardi. Birgina xatning kelishi nafaqat maktabda, balki butun qishloqda shov-shuv bo'lib ketardi: “Ey, falonchiga falon redaksiyadan xat kelibdi” degan. Odamlarda matbuotga ishonch, qiziqish kuchli edi.

Nima uchun e'tibor shu darajada baland bo'lganini bilasizmi? Sababi — qishloqlarda televizor yo'q, faqat radio bo'lardi. Har bir uyga pochta bitta bir qancha gazeta-jurnal berib ketardi. Odamlar ko'p obuna bo'lardi-da. Esimda qolgani, 7-sinfda edim shekilli, birinchi maqolam “Yosh leninchi” (hozirgi “Yoshlar ovozi”) gazetasida chiqqan. Tanqidiy ruhda edi. Nashrlar o'z vaqtida yetkazib berilmayapti, degan masalani yozgandim.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

ONAJONIM — TABIAT!

“YASHIL DENGIZ” HAYRATLARI



Mundoq do'ppimni olib o'ylab qaragam, O'zbekistonning men bormagan go'shasi qolmabdi hisob. Biroq so'nggi yillarda Orolbo'yilarini hech borib ko'ray demabman. Shu xayolda tarixchi-olim Umid Bekmuhammad hamrohligida Mo'ynoqqa otlandim.

Yo'ning ravonligidan safar mashaqqati sezilmadi. Manzilga yaqinlashar ekanmiz, rang-barang gullar, yam-yashil daraxtlar, bir-biridan ko'rkam imoratlarga duch kelaverdik. Yoshlar markazi, amfiteatr, muzey, kasb-hunar maktablari, zavod va fabrikalar... Bular yaqin besh-olti yil ichida yuz bergan

ulkan evrilish va o'zgarishlar natijasi. Mo'ynoqda jaziramaga qaramasdan hayot zavqi avji pallasida.

Bizni ochiq chehra bilan kutib olgan “Orolqum” milliy tabiat bog'ining ilmiy ishlar bo'yicha mutaxassisi Zaruxan Matekeyeva gurgunni boshlab berdi: — “Orolqum” milliy tabiat bog'i O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-martdagi “O'rmon fondi yerlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bog'liq qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan tashkil etilgan.

(Davomi 5-sahifada.) ➤

MILLAT FIDOYILARI

O'z zamonasining dardi bilan yashamagan, xalqning shodligi-yu g'amini qalban his qilmagan inson na chin fuqaro, na komil shaxs bo'la oladi. Vatanga muhabbat baland da'volar, balanparvoz hayqiriqlar emas, aksincha, hech bir ta'masiz unga xizmat qilish, bobolarning ezu ishlarini davom ettirib, ular yoqqan chiroqlarni o'chirmay asrashda ko'rinadi. Mana shu sharafni anglaganlarga o'z ilm-u salohiyatini, borini yurt ravnaqi uchun safarbar etadi.

“TIRIKSAN, O'LMAGANSAN SEN...”

Ulug' shoir, mutafakkir, faylasuf Pahlavon Mahmud aytganidek:

“Kimdagi bo'lmasa zamona g'ami,
Yo olamdan emas, yo odam emas”.
Jadidlar ana shunday mas'uliyat tuyg'usi bilan yashagan ma'rifatparvar avlod edi. Binobarin, ularning hayoti biz uchun yurtini sevish ilmi, uni ardoqlash san'ati, chinakam farzandlik maktabidir. Bugun biz hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonimiz Mirxalil Karimovning hayot yo'li — o'qituvchilikdan tortib siyosiy tashkilotlardagi faoliyatigacha — “Men millatim uchun nima qildim?”

degan savolga javob, ibrat o'laroq o'qiladi.

Mirxalil Karimov 1902-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Otasi Afzal Karimov o'rmonchilik bilan shug'ullangan, Toshkentdagi yirik savdoga Akbar Umarboyev qo'l ostida o'n yetti yil mobaynida ish boshqaruvchi sifatida xizmat qilgan. Tabiiyki, bu kasb bir oilaning dunyoqarashi, iqtisodiy salohiyati va muhit bilan bog'lanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy pog'ona edi.

(Davomi 7-sahifada.) ➤



Boshlanishi 1-sahifada.

Butun maktabda shov-shuv bo'lib ketdi: “Falonchining maqolasi chiqibdi gazetada!” “Tangalik bolalar” filmida Zokirning she’ri bosilgan gazetani ko’targancha yugurib ketayotgan Dostonni ko’z oldingizga keltiring. Juda hayotiy, samimiy epizod bu. Eng qizig’i, men tanqid qilgan pochta akamning yaqin o’rtog’i edi. Bir kun ko’chada ko’rib qoldim, salom bersam, alik oldi-da: “Sen meni tanqid qilib yozibsan-a? Mening oldimga o’tgin, gap bor”, dedi. Rosa kaltak yesam kerak, deb o’yladim. Lekin baribir bordim. Shunda u kulib, “Jo’ramning ukasisan-da, bo’lmasa tanqid qilish qanaqa bo’lishini ko’rsatib qo’yardim senga”, degancha yuzimga sinovchan qarab turdi, keyin: “Yozqaningga pul kelgan”, deb qo’shib qo’ydi. Bu birinchi qalam haqim edi – bir so’m-u qirq tiyin. Hech esimdan chiqmaydi. Uning qadri ham, o’rni ham boshqacha bo’lgan. Bir kuni Ahmedov degan nihoyatda madaniyatli, bilimli matematika o’qituvchisi “Gazetada maqolang chiqibdi-ya?” dedi. “Ha”, dedim. “Nimaga kayfiyating yo’q, agar yozganlaringda asos bo’lsa, hech nimadan xafa bo’lma, yana yozgin. Faqat, yozgan narsang, u tanqidiy bo’ladimi, maqtov bo’ladimi, asosli bo’lsin. Yolg’on bo’lmasin”, dedi. Bu gaplar menga katta dalda bo’lgan.

Shundan keyin turli gazeta va jurnallarda maqolalarim chiqa boshladi. Maktabni bitirib, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O’ZMU) filologiya fakultetining jurnalistika bo’limiga o’qishga kirdim.

Talabalik davrimda “O’zbekiston madaniyati” gazetasi tahririyatiga ish so’rab bordim. Bosh muharrir o’rinbosari Sanjar Tilla degan odam suhbat qildi-da, “Seni ishga olamiz, lekin oyling kamroq bo’ladi”, dedi.

– Meni oylik qiziqtirmaydi, ish bo’lsa bo’ldi, – debman.

– Otang nima ish qiladi? – deb so’radi. Bir boy-badavlat odamning o’g’li shekilli, deb o’yladi chog’i.

– Otam ishlamaydi, pensiyada, – dedim.

Sanjar aka menga g’alati qarab, bosh chayqab qo’ydi-da, qo’limga qog’oz va qalam tutqazdi.

nimalardir yozadi. Oxir-oqibatda kimgadir ijobiy ta’sir ko’rsatadi, kimnidir to’g’ri yo’lga boshlaydi.

Aslida, jurnalist ijodkor sifatida faqat qalami bilan emas, o’zining amaliy, ijtimoiy faoliyati bilan ham jamiyat hayotida faol ishtirok etishi kerak. Buning uchun bayroq ko’tarib chopishi, baqir-chaqir qilishi shart emas. Voqealarga o’z vaqtida munosabat bildirsın, boshqalarni ham hushyorlikka chorlasın. Demogchimanki, ziyoli hayotda katta figura, yetuk shaxs bo’lishi lozim. Albatta, burungi va bugungi jurnalistika o’rtasida osmon bilan yercha farq bor.

Bugun turli sohalarida yangiliklar qilayotganlarga nisbatan “jadid” sifatini ishlatgimiz kelmaydi negadir. Yangilik qilayotgan odam, xalqni ma’rifatli qilaman deb kura-shayotgan shaxs jadid bo’ladi-da! Bugungi zamonning eng asosi, bosh jadidi kim? Hech ikkilanmay Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev deyman! Yo’lboshchimiz butun mamlakatni, jamiyatimizni ijobiy tomonga o’zgartirib yubordi. Yangi O’zbekiston g’oyasi so’zda yoki qog’ozda emas, amalda ro’y beryapti-ku! Buni nainki xalqimiz, dunyo ko’rib, e’tirof etayotir. Yana qaytarib aytaman, ma’lum bir

deb boqimanda bo’lib o’tirish yarashmaydi.

Jurnalistlarga yaratilgan imkoniyatni-ku, gapirmasa ham bo’ladi. Ammo, afsuski, ayrim hamkasblarimizda izlanish, o’qib-o’rganish talab darajasida emas. Xususan, so’zning ma’nosini tushunish, har bir kalimani o’z o’rnida ishlatish mas’uliyatini his etish borasida. Ular qahramon shoirimiz Erkin Vohidovning “So’z latofati” kitobini qayta-qayta o’qib, yod olishsa yomon bo’lmaydi. So’z zargarining bu zabardast asari nafaqat jurnalistning, balki har bir ijodkorning stolida turishi shart.



Mamatqul HAZRATQULOV,
O’zbekistonda xizmat
ko’rsatgan jurnalist

bo’ladi. Loqaydlik – eng yomon illatlardan biri.

Ijodkor yengil yo’ldan yurmasligi, manmanlikka, hoy-u havasga, mukofot-u unvonlarga uchmasligi kerak. Tilagim – har bir jurnalistning qalami o’tkir, barakali bo’lsin, Alloh hamma tomondan omadini bersin.

Hamkasblarimiz, ayniqsa, yoshlar qancha ko’p yutuqqa erishsa, men shu sohada ozroq mehnat qilgan bir inson sifatida xursand bo’laman. Gazetalarni yoki televideniye, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib, yoqadigan biron narsa o’qisam shodlanaman. Ba’zilarini qidirib, telefonda bo’lsa-da, tabriklab qo’ygim keladi.

Endi shunday bayram kuni aziz ustozlarni yodga olmasak bo’lmas. Bu borada omadim kelgan desam bo’ladi. Professor Laziz Qayumov, O’zbekiston xalq yozuvchilari Asqad Muxtor va Odil Yoqubovdek ulug’ adiblar bilan birga ishladim. Men ularning ijodiy mahorati bilan birga insoniy fazilatlariga: bag’rikenglik va zahmatkashligiga havas qildim. Ayniqsa, bir xulosam borki, ijodkor qancha buyuk bo’lsa, shuncha kamtar hamda halol bo’larkan. Men topgan eng katta hikmatlardan biri mana shu. Jurnalist izdoshlarimizga ham ana shunday yuksak maqomlarga erishish baxtini tilayman!

Zarnigor IBROHIMOVA
yoziy oldi.



“Matbuot – millatning oynasidir. ...Millatning butun hayoti majmuasi matbuotida in’ikos etar. Biz o’zimizning nuqsonlarimizni yozmasak va ko’rsatmasak, qachon isloh etilurimiz va qachon taraqqiy qilurimiz?”

Munavvar qori ABDURASHIDXONOV

HAMKORLIK

Ikki yil avval, 2023-yilning 12–19-oktyabr kunlari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyati bo’limi tashabbusi bilan Urganch davlat universiteti, Urganch shahridagi “Ma’mun” universiteti hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetidan bir nechta olimlar Mo’g’ulistonga ekspeditsiya uyushtirdik. To’g’risi, diplomatik aloqalar yo’lga qo’yilmagan mamlakatga borish oson ish emasligini o’shanda bildik. Toshkentdan Ulan-Batorga havo qatnovlari yo’qligi sabab, Olmaotadan uchishga to’g’ri kelgan. Qolaversa, borar manzilimizda biron odamni tanimaganimiz, yerli xalqning madaniyati bilan tanish bo’lmaganimiz uchun ikkilanishlar ko’p edi.

Ammo... Biz maqsadimizda sobit turdik. Chunki bizni buyuk bobolarimizning Mo’g’uliston yerlarida qolib ketgan merosi bilan bog’liq mustahkam g’oyalari birlashtirgan edi. Misol uchun, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori Bekzod Abdrimovning izlanishlari “Chingizxon davrida Turkistondan majburiy olib ketilgan xorazmlik asirlar va ularning taqdiri”ni o’rganishga, tadqiqotchi Mardon Hasanovning izlanishlari “Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamat ul-adab” asari mo’g’ulcha tarjimai tadqiqi”ga, mening izlanishlari “O’rxun yozuvlari tarixi va leksikasining tadqiqi”ga qaratilgan edi. Shu sabab, ikkilanishlarni yengib, xoqon bobolarimiz qoni to’kilgan “begona” yurtga kirib bordik.

U yerda Mo’g’uliston Milliy universiteti qoshidagi Turkologik tadqiqotlar instituti rahbari Anxbayar Danu (hozir Mo’g’ulistonning Turkiyadagi elchisi) bizni kutib oldi. U Mo’g’ulistondagi biz sirdan tanigan yagona odam edi. Anxbayar Danu arab, fors, turk, ozarbayjon tillarini bilgani uchun bizga ko’p yordami tegdi. Uning maslahatlari bilan “Bilga Xoqon”, “To’nyuquq” majmualari, Qoraqurum tarixiy muzeyi va kutubxonalarda bo’lib, o’z tadqiqotlarimiz doirasida muhim ma’lumotlarni ko’lga kiritdik. Ekspeditsiyamiz nihoyasida Mo’g’uliston Milliy universitetida “Birinchii o’zbek-mo’g’ul konferensiyasi”ni tashkil qildik. Bu konferensiya bizga “Turkologik tadqiqotlar instituti” va mo’g’ul olimlarining tadqiqot yo’nalishlari bilan tanishish imkonini berdi. Natijalarga ko’ra, o’zaro ilmiy hamkorlikning istiqbollari belgilandi. Jumladan, shunday xalqaro konferensiyalarni har yili muntazam o’tkazishga kelishib olindi.

Natijalar yomon bo’lmadi. Ekspeditsiyadan keyin, Bekzod Abdrimovning “Chingizxon



bosqini: Mo’g’ulistonga olib ketilgan asirlar taqdiri”, Mardon Hasanovning “Mo’g’uliston hayratlari” kitobi chop etildi. Mening “Jadid” gazetasida “O’rxun bo’ylaridagi xazina”, “Oyina.uz” portalida To’nyuquq haqidagi “Sakkizinchi asrga ekspeditsiya: Kamsitilib ulg’aygan bolakayning 23 shaharni birlashtirgan qo’mondonga aylanish tarixi” nomli maqolalarim e’lon qilindi.

Mo’g’ulistonda o’tkazilgan konferensiya qaroriga ko’ra, keyingi yilda O’zbekistonda xalqaro anjuman tashkil etishga kelishilgan edi. 2024-yil 5-6-iyun kunlari Urganch davlat universiteti tomonidan “Tarix va filologiya sohalarida o’zbek-mo’g’ul ilmiy aloqalari” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi. Konferensiyada yetti nafar mo’g’ul olimi ishtirok etdi.

Bu konferensiya ikki mamlakat olimlarini yaqinlashtirdi. Shundan keyin biz yanada kengroq ko’lamdagi konferensiyalar tashkil etishni, unga boshqa mamlakat olimlarini ham jalb qilishni rejalashtirdik. Shuningdek, o’zaro muhokamalarda o’zbek olimlarining YUNESKO bazasidagi nufuzli global konferensiyalarda ishtiroki masalalarini ham maslahatlashib oldik.

Bu orada Toshkentda Mo’g’ulistonning elchixonasi ochilib, o’zaro hamkorlikning ustuvor yo’nalishlari belgilab olindi.

Ular orasida, ilm-fan, madaniyat va san’at yo’nalishlariga alohida e’tibor qaratilgan.

2024-yilning 4-dekabr kuni, Mo’g’uliston elchisi Daadanxuu Batbaatarning taklifi bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti professori Hamidulla Dadaboyev, “Til va adabiyot ta’limi” jurnali bosh muharriri Farrux Jabborov bilan birga elchi huzurida bo’ldik. Elchi bilan uchrashuv chog’ida o’zbek olimlarining Mo’g’uliston bilan bog’liq tadqiqotlari, xususan, O’rxun yodgorliklarining o’rganilishi, shuningdek, O’zbekistonda “mo’g’ulshunoslik”ning bugungi holati bo’yicha mavjud muammolar va imkoniyatlar muhokama qilindi. Bir qator muhim tashabbuslar, jumladan, mo’g’ul-o’zbek lug’atini ishlab chiqish, ikki mamlakat hududlarida qo’shma arxeologik, etnografik va toponimik tadqiqotlar o’tkazish istiqbollari haqida suhbatlashildi.

2025-yildan O’zbekiston va Mo’g’uliston o’rtasidagi ilmiy hamkorliklarning yangi uflari ko’rina boshladi. Yil boshidan, YUNESKOning Nomadik sivilizatsiyalarni o’rganish xalqaro instituti, Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish

sohalar emas, barcha jabhada, jumladan, bizning sohamizda ham qancha o’zgarish va yangiliklar bo’ldi va bo’lmoqda. Ochiqlik siyosatini kim joriy etdi? Shavkat Miromonovich Prezident bo’lib kelgan dastlabki kundan boshlab shu masalani o’rtaga qo’ydi. Ijodkorlarga, xususan, jurnalistlarga “Sizlar mening yordamchilarim-siz. Jamiyatimizdagi yutuqlarni ham, kamchiliklarni ham bori-cha aytinlar, menga yordam beringlar. Faqat halol bo’lsin, to’g’ri va adolatli bo’lsin”, dedi. Demak, zimmamizda juda katta mas’uliyat bor. Buni unutmazlik kerak. Faqat ochiqlik siyosati imkoniyatlarini suiiste’mol qilmaslik zarur.

Davlatimiz tomonidan odamlarga har taraflama imkoniyatlar yaratilyapti. Prezident so’zi bilan aytganda, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”. Va bu amalda bo’lmoqda. Lekin xalqning o’zi ham, o’zbekcha aytganda, olma pish, og’zimga tush, deb yotavermasligi kerak. “Davlat yordam berar ekan”,

Jurnalistning quroli til, so’z.

Bu kasb egalarining fikr doirasi keng bo’lishi kerak. Jurnalistlarni ixtisoslashtirish tarafdoriman. Chunki “universal” jurnalistlar ko’payib boryapti. Bugun san’atni yozadi, ertaga sanoatni, indinga tibbiyotni, undan keyin sportni... Hamma sohani mukammal bilish mumkin emas-ku. Ixtisoslashgan jurnalist o’zi yozayotgan sohaning nozik tomonlarini, o’ziga xos xususiyatlarini, murakkabliklarini, muammolarini chuqur biladi va ifoda etadi.

Umuman, odam jurnalist bo’ladimi, boshqa kasb egasi bo’ladimi, o’zi yashayotgan jamiyatda uning ham mas’uliyati borligini his qilishi darkor. Shu jamiyatning a’zosi sifatida atrofmizda bo’layotgan yaxshi ishlarga ham, kamchiliklarga ham daxldor ekanimizni unutmasligimiz lozim. Yutuqlarda mening ham hissam bor deb, kamchiliklar bo’lsa shu mening ham kamchiligim, deb qarashimiz shart. O’zini jamiyatdan tashqarida his qilish mumkin emas. Bu loqaydlik

BUYUK IPAK YO’LINING YANGI KARVONI

agentligi (TIKA), TURKSOY shafeligida Istanbul universiteti va Mo’g’uliston Milliy universiteti tomonidan 2025-yilning 30-iyun – 3-iyul kunlari Qoraqurum shahrida “O’rta Osiyo tarixida ko’chmanchi qabilalar va o’troq xalqlarning integratsiyasi (tarix-madaniyat-til)” mavzusida xalqaro simpozium tashkil etilishi rejalashtirilgan. Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, O’zbekiston, Qozog’iston, Qirg’iziston, Rossiya va Mo’g’ulistondan jami o’ttiz kishining ishtiroki nazarda tutilgan ushbu simpoziumga olti nafar o’zbek olimining ilmiy tezislari qabul qilingan. Bu albatta, o’zbek olimlarining yutug’i hisoblanadi. Chunki an’anaviy tarzda o’tkazilib kelinadigan ushbu nufuzli anjumanda O’zbekiston ilk marta ishtirok etmoqda.

Simpoziumning tashkiliy qo’mita raisi, Istanbul universiteti professori Qurshat Yildirim o’zbek olimlarining bu ishtirokini quyidagicha sharhladi: **“Mo’g’ulistonda olib borilayotgan tadqiqotlarda, ilmiy anjumanlarda o’zbekistonlik qardoshlarimizning yo’qligi bizga ulkan bir bo’shliq kabi edi. Shukurki, qardoshlarimiz safimizga qo’shildi va bag’rimiz to’ldi. Endi, tadqiqotlarimiz yanada tugal va mukammal bo’lishiga umid qilamiz!”**

Bu yil ham o’zbek olimlari Ulan-Bator shahriga Olmaota orqali uchishiga to’g’ri keladi. Chunki o’shanda Toshkentdan Ulan-Batorga to’g’ridan to’g’ri havo qatnovlari yo’lga qo’yilmagan edi.

O’tgan yili Mo’g’uliston prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O’zbekistonga tashrifi doirasida Davlatlararo munosabatlar va hamkorlik to’g’risidagi qo’shma bayonot hamda 14 ta hujjat imzolangan. Shu hujjatlar orasida turizm, havo qatnovi va ilmiy hamkorliklar ham ko’zda tutilgan edi.

To’g’ri, o’shanda O’zbekiston va Mo’g’uliston o’rtasidagi qulay konyunktura yoki barqaror munosabatlar shakllanmagandi. Bu ijtimoiy-siyosiy-iqtisodiy sohalar bilan birga madaniy yo’nalishga ham tegishli. Ammo yagona mintaqadagi ming yillik mustahkam tarix, madaniy meros ikki mamlakat o’rtasidagi o’zaro do’slik

aloqalarini mustahkamlash uchun garov bo’la oladi. O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mo’g’uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux bilan uchrashuv chog’ida bu haqda o’z fikrlarini bayon qildi: **“Mo’g’uliston biz uchun Osiyo mintaqasidagi an’anaviy va ishonchli hamkoridir. O’zbekiston–Mo’g’uliston munosabatlari do’slik, o’zaro hurmat va qo’llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan bo’lib, konyunkturaga bog’liq emas”.**

Davlatimiz rahbarining bu so’zlari barcha soha vakillari, xususan, olimlarga ham ishonch bag’ishlaydi. Inchunin, bugungi kunda Mo’g’ulistonda chorvachilik, kon-metallurgiya sohalarida ilmiy-tadqiqotlar rivojlangan. O’rxun daryosining vodiylarida qadimgi turkiy xalqlar tarixi bilan bog’liq, hali ochilmagan yuzlab manzilgohlar arxeologlarni kutib turibdi. O’rxun yozuvlari bo’yicha yangi tadqiqotlarning natijalari ham bizgacha yetib kelmayapti.

Shu bois 24-25-iyun kunlari O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mo’g’uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning taklifiga ko’ra Mo’g’ulistonga tashrif buyurishi boshqalar qatori biz olimlarni ham behad quvontirdi.

Prezidentlar uchrashuvida sanoat, qishloq xo’jaligi, konchilik, transport sohalarida o’tgan bir yil mobaynida bajarilgan ishlar sarhisob qilindi. Hamkorlikni rivojlantirish bo’yicha yangi hujjatlar imzolandi. Shu bilan birga, uchrashuvda madaniy-gumanitar almashinuylarni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Ayni paytda Ulan-Bator shahrida o’tkazilayotgan O’zbekiston madaniyati kunlari, san’at va turizm tadbirlari mahalliy xalq tomonidan yuksak baholandi. Ma’lumki, bugungi kunda ilm-u fan taraqqiyotini xalqaro darajadagi hamkorliksiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Tadbir doirasida oliy ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlikni faol rivojlantirish va talabalar almashinuviga kelishib olingani bu borada muhim qadam bo’ldi.

Eng quvonarlisi, joriy yilning sentyabr oyidan to’g’ridan to’g’ri havo qatnovlarining yo’lga qo’yilishi, quruqlik orqali ham qulay logistik yo’nalishlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilganidir. O’laymizki, ikki davlat rahbarlarining sa’y-harakatlari orqali yo’lga qo’yilayotgan bu kabi hamkorlik yildan yilga rivojlanib, yuksalib boradi va ikki xalqning do’slik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilajak.

Anvar BO’RONOV,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori
(PhD)



“ENDI ISHLASH KERAK BU KENGLIKLARDA...”

Sulton-ul ulum Mirzo Ulug‘bek ta‘biricha, “Riyoziyot g‘oyat bir yuksak fanki, unda bir olam mo‘jiza yotadi”. Yana matematikani “aql-idrok musiqasi”ga ham qiyos etishadi. Mumtoz matematiklar aniq fanlar muxlisariga turli manbalarda bir xil xitob qilgan ekan: “Keling, fikrlashni o‘rganamiz!” Darhaqiqat, zamonaviy dunyoda ushbu fanning ahamiyati har qachongidan ko‘ra dolzarb. Salohiyatli va yosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ham shunga yarasha.

Biz O‘zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktor o‘rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori, professor, “Shuhrat” medali sohibi Abror XUDOYBERDIYEV bilan ana shunday masalalar xususida suhbatlashdik.

– Markaziy Osiyo o‘tmishda dunyoviy sivilizatsiyalar tutashgan muhim chorrahalardan biri bo‘lish bilan birga, o‘zi ham tamaddun yaratgan mintqa hisoblangan. Xususan, bu zaminda dunyoga kelgan Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Iroq, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi ulug‘ olimlarning aniq va tabiiy fanlar, jumladan, matematika ilmi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgani butun dunyoda ma‘lum va mashhur. Biroq keyingi asrlarda o‘lkamizda ish boshqacha tus olib, ilm-fan, jumladan, matematika ham turg‘unlikka yuz tutdi. Sizningcha, bunga nima sabab bo‘lgan? Umuman, ilm-fan taraqqiyoti bardavomligining kafolati nimada?

– Fikringizda jon bor. Insoniyatning uzoq tarixi davomida rivojlanish o‘choqlari u yerdan bu yerga ko‘chib yurgan. Bizda ham Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida misli ko‘rilmagan rivojlanish bo‘lgan. Afsuski, keyinchalik uyg‘onish Yevropaga ko‘chdi. Buning juda ko‘p sabablari bor. Ulardan biri dengiz yo‘lining ochilishi bilan bog‘liq. Yangi yo‘l Yevropa davlatlariga iqtisodiy o‘shish imkonini berdi, shunga qarab ilm-fan ham rivojlana bordi. Mintaqamizda esa XVI-XVIII asrlarga kelib aniq fanlar mutlaqo chetga surildi, desak ham bo‘ladi.

Bu holat XX asr avvalida, aniqrog‘i, jadidlarning ma‘rifatparvarlik harakati boshlanishi bilan barham topa bordi. Aynan shu davrda O‘zbekistonning keyingi ilm-fan yutuqlariga poydevor qo‘yildi.

Ochig‘i, sobiq tuzum davrida ham O‘zbekiston matematika bo‘yicha peshqadamlardan bo‘lgan. Ammo bizning fidoyi olimlarimizning bu sohada erishgan barcha ijobiy natijalari “qizil imperiya” nomidan e‘lon qilingan. O‘sha davrlarda respublikamizda Toshmuhammad Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Sa‘di Sirojiddinov kabi yirik olimlar yetishib chiqdi va o‘z maktabini yaratdi. Biz istiqlol davrining dastlabki o‘n yilliklarida ham ma‘lum inqiroz bosqichini boshdan o‘tkazdik.

Prezidentimizning aniq fanlarni rivojlantirish yo‘lida olib borayotgan keng ko‘lamli islohotlari endi yangi davrni boshlab berdi. Vazifamiz – ana shu jarayonni zamon talabi darajasida davom ettirish. Bu yo‘lda bizga yangi-yangi g‘oyalar, yo‘nalishlar va bilimga chanqoq yoshlar kerak bo‘ladi.

Bugun yurtimizda yosh iste‘dodlar uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Ana shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarish yo‘lida Yurtboshimiz: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”, degan maqsadni ilgari surdi.

Mana endi savolning ikkinchi qismiga javob bersa bo‘ladi. Ilm-fan rivojining davomiyligi juda ko‘p narsaga, avvalo, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga va mintaqaning iqtisodiy barqarorligiga ham bog‘liq. Agar davlat barqaror bo‘lmasa ilm-fanga mablag‘ ajratish ham qiyin kechadi.

Qolaversa, ta‘lim tizimini rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Tizim to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, iste‘dodli olimlar yaxshi shogird, yetuk mutaxassis yetishtiradi. Muhimi, bugun davlatimiz tomonidan matematika sohasi tizimini yaxshilashga katta e‘tibor qaratilmoqda.

– Abror aka, siz 25 yoshda fan nomzodi, 31 yoshda fan doktori ilmiy darajasiga erishgan ekanmiz. Qolaversa, ilmiy faoliyatingiz mintaqamizda, turkiy dunyo va xalqaro miqyosda ham alohida e‘tirof etilgan. Matematika sohasiga qadam qo‘yganingizga ham qariyb yigirma yil bo‘libdi. Shu davr mobaynida yuz bergan o‘zgarishlar faoliyatingizga qanday ta‘sir qildi? Sizningcha, yosh matematik olim uchun qanday sharoitlar kerak?

– O‘zbekiston Milliy universitetining yuqori bosqichida o‘qib yurganimda matematika bilan jiddiy shug‘ullanishga



qaror qildim. Magistraturani tamomlab, ilmiy ishga qo‘l urgan paytimda chet elga chiqish imkoniyati paydo bo‘ldi. O‘shanda xorijiy universitetlar bilan yurtimizdagi o‘quv yurtlaridagi sharoitni taqqoslab, o‘rtadagi farqdan hayratga tushgan edim. “Biz ham qachondir shunday imkoniyatlarga ega bo‘larmikinmiz”, degan xayollar bilan yurtga qaytganman. Bu – 2007-yildagi gaplar.

Hozir biz ham hech uyalmasdan, tortinmasdan ilmiy ishlarni dunyoga olib chiqaymiz. Xorijlik olimlar ham katta qiziqish bilan yurtimizga kelib, tajriba almashyapti, bizdan o‘rganyapti va sharoitlarimizga havas qilyapti.

Sharoitda gap ko‘p. Aslida hamma olim uchun har xil sharoit kerak bo‘ladi. Bu borada matematiklarning “injiqligi” ancha yengil kechadi: shinam xona, moddiy-texnik baza, doska va bo‘r, qog‘oz va qalam hamda oilasini ta‘minlashga yetadigan maosh bo‘lsa kifoya. Avvallari bunday sharoit, ayniqsa, yetarli maosh yo‘q edi. Ilm qilaman degan yoshlar kamida ikkita joyda ishlashga majbur bo‘lardi. Oqibatda ilm-fandan chalg‘ib, fikr bo‘linib ketar, ko‘pchiligi o‘zini pultopar sohalarga urishga majbur edi. Matematikada, umuman, aniq fanlarda fikr chalg‘isa yoki boshlangan g‘oya qaysidir joyida chala qolsa, kelgan joyidan davom ettirish juda qiyin bo‘ladi. Jarayonni yana boshidan boshlashga to‘g‘ri keladi.

Mana, hozirgi kunda olim bo‘laman degan har bir yoshga barcha sharoit muhayyo qilingan. Oilasining moddiy ta‘minotidan ham g‘am chekmaydi. Taniqli shoir Shavkat Rahmon satri bilan aytganda, “Endi ishlash kerak bu kengliklarda”. Chunki ishlamaslikka bahona yo‘q.

– Ilmiy ish mavzusidan uzoqlashmagan holda yana bir savol bermoqchiman. Siz noassotsiativ algebral va ularning deformatsiyalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan ekansiz. Nomidanoq murakkab yo‘nalish ekani ko‘rinib turibdi.

– Biz ayni paytda noassotsiativ algebral, ularning tasniflari, deformatsiyalari va boshqa xossalarni o‘rganyapmiz. Doktorlik ilmiy ishim ularning turlaridan biri bo‘lgan Leybnits super algebralari, ularning tasniflari va deformatsiyalari haqida. Bu algebralarda matematika faniga fizikadan kirib kelgan. Fizikaning ko‘plab masalalari Li algebralari bilan bevosita bog‘liq.

Li algebralari o‘tgan asrning o‘rtalarida rivojlana boshlagan. Keyinchalik fundamental matematikaning taraqqiyoti natijasida Li algebralarning bir qancha umumlashmalari paydo bo‘lgan. Biz o‘rgangan Leybnits algebralari ham Li algebralarning umumlashmalari hisoblanadi. Ularni tasniflash qaysidir ma‘noda fizika sohasidagi tegishli jarayonlarni tasniflashga teng kuchli hisoblanadi.

– Shu o‘rinda matematikaning hayotdagi ahamiyatiga to‘xtalib o‘tsangiz.

– Matematika birinchi navbatda insonni mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Bu fan shunchaki qo‘shib-ayirishdan iborat emas, matematika – falsafiy fikrlashni rivojlantirish, biror-bir masalaga – xoh u hayotiy bo‘lsin, xoh ilm-fanga taalluqli bo‘lsin, mantiqiy ketma-ketlikda to‘g‘ri yechim topish deganidir.

Tadqiqotlar isbot etganki, maktabda matematikani yaxshi o‘rgangan bola keyinchalik boshqa sohalarda bemalol o‘z o‘rnini topa oladi.

Hozirgi kunda fundamental matematikadagi ilmiy natijalarning tatbiqlari haqida gapiradigan bo‘lsak, juda ko‘plab matematik apparatlar, tushunchalar, fizika-kimyoya va biologiya masalalaridan kelib chiqqan. Ana shu biologik masalalarning matematik modellari yaratilgan. Uzoqqa bormasdan, yaqin o‘tmishda yurtimizda yuz bergan pandemiyani olaylik. Institutimiz laboratoriyasida matematik modellashirish natijasida ana shu xavfli kasallikning tarqalish tezligi, oqibatlari haqida ilmiy bashoratlar tayyorlandi. Bu esa pandemiyaning mohiyatini to‘laroq tasavvur qilish va unga qarshi samarali kurash olib borishda qo‘l keldi, deyish mumkin.

– Institutingizda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va erishilayotgan natijalar haqida ham to‘xtalsangiz.

– Bizda yettita laboratoriyada bevosita ilmiy izlanishlar olib boriladi. Bundan tashqari, metodik yo‘nalishdagi laboratoriyalar ham mavjud. Shu bilan birga, Prezidentimiz tashabbusi bilan matematika ta‘limiga ixtisoslashgan maxsus laboratoriya ham ochilgan. Viloyatlarda beshta bo‘linmamiz faoliyat yuritaypti.

Biz asosan algebra, funksional analiz, differensial tenglamalar, matematika-fizika tenglamalari, ehtimollar nazariyasi, dinamik sistemalar yoki nochiqliq tenglamalar tizimi kabi fundamental yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib boramiz.

Bundan tashqari, bitta laboratoriyamiz bevosita amaliyotga tatbiq qilinadigan tibbiyotga oid masalalar bilan shug‘ullanadi. Olimlarimiz bu borada kimyo va tibbiyot sohalariga ixtisoslashgan institutlar bilan hamkorlikda samarali ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

– Maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida matematika fanining o‘qitilishidan sizning ko‘nglingiz to‘ladi-mi? Darslik va o‘quv qo‘llanmalarining saviyasi, professor-o‘qituvchilarning bilimi va tajribasi haqida qanday fikrdasiz?

– Bu juda og‘riqli savol. Chunki bizda shunday davr bo‘ldiki, ancha narsalarni boy berdik. Ayniqsa, malakali kadrlarni... Keyingi vaqtlarda maktablarda ta‘lim sifati qanday, darsliklar yetarlimi, degan masalalar juda ko‘p ko‘tarilyapti.

Avvalo, bolalarga yaxshi bilim berish bevosita o‘qituvchiga bog‘liq. Shuning uchun ta‘lim sifati yaxshilash o‘quv qo‘llanmalaridan ham ko‘ra ko‘proq o‘qituvchi-mutaxassislarning saviyasini oshirishga bog‘-



liq. Yurtimizga malakali va fidoyi matematika o‘qituvchilari ko‘proq kerak. Bu masalada haqiqatan ham juda oqsayapmiz.

To‘g‘ri, hozir oliy ma‘lumotli mutaxassislari soni yildan yilga ortib bormoqda, ammo sifat ko‘ngildagidek emas. Chunki maktabda yaxshi o‘qimagan o‘quvchi bertaga oliy o‘quv yurtida ham loqaydlik va e‘tiborsizlik bilan tahsil oladi. U maktabda ham saviyasizlik bilan dars beradi. Mana, gap nimada... Uzviy bog‘lanadigan zanjirni boshidan to‘g‘ri yo‘naltirish kerak. Bu jarayon iziga boshishi uchun biz vaqtimiz lozim bo‘ladi, deb o‘ylayman.

To‘g‘risi, matematikaga oid darsliklarning saviyasi ham ko‘ngildagidek emas. Sababi, darslik zo‘r bo‘lishi uchun uni yozadigan, sinovdan o‘tkazib, kamchiliklarini ko‘rsatib beradigan bilimdon, tajribali o‘qituvchilar kerak. Ular metodik jihatdan to‘g‘ri, izchil yozishi, uni malakali sinovdan o‘tkazishi lozim bo‘ladi. O‘quvchilar yangi darslikni qanday qabul qilayotgani, o‘qituvchi qanday dars o‘tayotganini obdon o‘rganish va zarur xulosalar chiqarish lozim.

Shu o‘rinda yana bir muammoli masalani aytib o‘tishim mumkin. Masalan, bir darslik uslubida qandaydir kamchilik aniqlandi deylik. “Bo‘ldi, uni chekkaga olib qo‘yinglar-da, yangisini tayyorlanglar” degan topshiriq bo‘ladi. Bu juda noto‘g‘ri yo‘l, chunki yangi darslik tayyorlansa, o‘z-o‘zidan unda ham kamchiliklar bo‘ladi. Keyin yana yangi darslik yoziladi, unda ham kamchilik bo‘lsa, yana qaytadan qo‘llanma tayyorlanadi. Shuning uchun darslik yozishga yondashuvni o‘zgartirish, bunday mas‘uliyatli vazifani puxta yo‘lga qo‘yish kerak. Undan foydalangan o‘qituvchi kamchiliklari bo‘lsa aniqlab, o‘zgartirishlar kiritishi lozim. Ana shunda, ma‘lum vaqt

o‘tgandan so‘ng, mukammal darslik paydo bo‘lishi mumkin.

Fikrimcha, maktablarda matematika fani bo‘yicha bitta emas, bir nechta darsliklar bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish lozim. Masalan, o‘rta maktablarda bir nechta qo‘llanmadan foydalanish orqali ularning eng yaxshisini tanlab olish yoki barcha darsliklarning eng afzal xususiyatlarini jamlab, yagona qo‘llanma yaratish mumkin.

– Keyingi vaqtlarda yurtimizda Muhammad Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab va uning filiallari ochilgani, fan olimpiadalari-nining saviyasi va sifati oshirilgani o‘z natijasini bermoqda. Siz yoshlar orasida matematika fanini ommalashtirish uchun yana nimalarga e‘tibor qaratish lozim deb hisoblaysiz?

– Chindan ham, bunday maktablarning tashkil etilishi iste‘dodli yoshlarni kashf qilish va ularni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi. Chunki u yerdan kelajakda yaxshi olimlar, mutaxassislari yetishib chiqadi. Fan olimpiadalarida erishilayotgan ijobiy natijalar soni ortib borayotgani ham ana shu e‘tiborning samarasidir.

Yoshlarimiz orasida matematika fanini ommalashtirish uchun eng ommabop muloqot vositasi hisoblangan ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish lozim. Turli ilmiy suhbatlar, qiziqarli boshqotirmalar, yutuqli tanlovlar o‘tkazish orqali yoshlarni matematikaga kengroq jalb qilish mumkin. Masalan, o‘zim yoshlarni ilmga tortish maqsadida ikki yildan buyon Milliy universitetda maxsus guruh tuzib, onlayn dars o‘taman. Ana shu darslarning video nusxalarini youtube tarmog‘idagi kanalimizga muntazam joylashtirib boramiz. Darslarimizda viloyatlarda istiqomat qiladigan o‘quvchilar ham onlayn ishtirok etmoqda.

– Siz nufuzli xalqaro ilmiy kongresslar va anjumanlarda ko‘p ishtirok etgansiz. Bunday davralarda Yangi O‘zbekiston ilm-fani, yurtimizda amalga oshirilayotgan izlanish va tadqiqotlar chet ellik olimlar tomonidan qanday baholanmoqda?

– Oxirgi safarim Portugaliyaga bo‘ldi. U yerda Yevropa davlatlaridan kelgan juda ko‘p olimlar bilan hamsuhbat bo‘ldim. Ular o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlari, tadqiqotlaridan boxabar ekanini, hayrat-u havaslarini yashirmay aytib berishdi. Ya‘ni, hozirgi paytda O‘zbekiston ilm-fanining dunyodagi mavqeyi



ancho ko‘tarilgan. Albatta, bundan faxrlansak arziydi. Lekin erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, yanayam ko‘p izlanishimiz va tadqiqotlar olib borishimiz kerak, deb o‘ylayman.

– Xo‘sh, o‘zbek yoshlari orasidan ham Grigoriy Perelman, Peter Sholse singari matematika daholari yetishib chiqishi uchun nimalarga e‘tibor qaratish lozim?

– Avvalo, yoshlarimiz maktabdan matematikani sevir o‘qishlari va universitetda ham yaxshi bilim olishlari lozim. Bundan tashqari, matematika fanining xalqaro darajadagi eng katta muammo va masalalari bilan shug‘ullanadigan iste‘dodli yosh olimlarni tarbiyalashimiz zarur. Yoshlarimiz olamshumul ilmiy masalalar bilan shug‘ullanadigan olim bo‘lish uchun o‘qib-izlanishdan bir zum ham to‘xtamasligi, xalqaro maydonga chiqishi talab qilinadi. Xorijdagi nufuzli universitetlarda taniqli professorlardan ta‘lim olib, ular bilan g‘oya almashish-nining ahamiyati juda katta. Bugun chet davlatlarda magistratura, doktorantura yo‘nalishlarida o‘qiyotgan umidli o‘g‘il-qizlarimiz anchagina. Kelajakda ularning orasidan katta olimlar chiqishiga umid qilib qolamiz.

– Biz ham yurtimiz nomini sharaflaydigan, buyuk bobolarimizga munosib allomalar voyaga yetishidan umidvormiz. Sizning timsolingizda barcha tadqiqotchi olimlarimizga og‘ir va manfaatli izlanishlarida baraka va unum tilab qolamiz.

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.



“ Millatda himmat ahlari va ziyolilar ko‘payturmak uchun ikki yo‘l bor. Biri, milliy matbuotni taraqqiy etdirmak, ikkinchisi, yoshlarimizni muntazam ilm uylarig‘a kirg‘uzmakdir. Rauf MUZAFFARZODA ”



30-IYUN – YOSHLAR KUNI

BARAKALLA, SHOHIDA!

Shohida – jussasi kapalakdek nozik, ammo qat'iyati burgutdek mustahkam Xorazm qizi. U o'zi bayroq qadagan cho'qqilarda boshqa o'zbek qizlarining ham yalovlarini ko'rishni istaydi.

“Men vatandosh opa-singillarimning “shunchaki ayol...” emasligini butun dunyoga isbotlayman!” Bu 30 dan oshiq xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotgan yoshgina qizning balandparvoz gaplari emas, balki boshi uzra baland ko'targan hayotiy shiori. Endigina 26 yoshga qadam qo'ygan Shohida mana shu ezgu maqsad yo'lida ellik mingdan oshiq xotin-qizni muvaffaqiyat sari ergashtirib olg'a ketmoqda.

Yangibozor tumanining Qalandardo'rmon qishlog'ida mehnat bilan kun kechirgan zahmatkash fermer may oyining boshida dunyoga kelgan mitti qizalog'i kun kelib minglab o'zbek ayoliga bosh bo'lishini xayoliga keltirganmikin? Ehtimol, qizalog'ining tili chiqishi bilan unga she'r yod oldirgani, besh yoshga to'lib-to'lmagan bolasiga kitob tashigani bejiz emasdir...

Shohida ijtimoiy hayotga juda erta kirdi. 2011-yilda “Yangi avlod” bolalar ijodiyoti festivalida, 2012-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan “Bolalar adabiyoti kunlari”da faol ishtirok etdi. Vaqt o'tib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qoshidagi Yoshlar parlamentida Xorazm viloyatidan deputat bo'ldi. Maktablarda bolalar huquqlari mavzusida seminarlar tashkil qildi. Ular orasidagi muammolarni aniqlashtirib, dadillik bilan Qonunchilik palatasiga olib chiqdi. Uning mazkur taqdimoti yosh siyosatshchilar orasidagi eng yaxshi taqdimot deb topildi.

– Bo'yim pastroq bo'lgani uchun o'shanda minbarda boshim ko'rinmay qoldi, – kulib eslaydi

Shohida. – Oyog'imning tagiga kursi qo'yib berishdi. Avvaliga biroz o'ng'aysizlandim, lekin qanday bo'lmasin hamma gapimni aytishim kerakligi menga kuch berdi. Ilk marta o'zimni katta siyosatchiday his qildim. Shu kundan boshlab turli tadbirlarda faol qatnasha boshladim. U a'lo baholarga o'qidi, ijod qildi, birinchi she'riy kitobini chop ettirdi, jamoat ishlarida, fan olimpiadalari va turli tanlovlarda faol qatnashdi. Ko'p o'tmay Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Shohida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga o'qishga kirdi, tahsil davomida xorijiy tillarni o'rganishga jiddiy kirishdi. Kichik tarjimonlik ishlariga qo'l urdi. Universitetda xalqaro jurnalistika va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishida o'qigani bois xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatdi. Bir guruh talaba do'stlari bilan Turkiyada bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaga bordi-yu, hayotining asosiy o'zanini topdi. Ota-onasiga sovg'a xarid qilish maqsadida Istanbul do'konlaridan biriga kirar ekan, sotuvchining bir og'iz “ishlagani kelganlardanmisan?” degan bepisand savoli uning izzat-nafisiga qattiq tegdi.

– Orim keldi, sayohatga keldingmi, deb so'rasa ham bo'lardi-ku, – deydi Shohida. – Chet ellarda bizni faqat qora ischchi sifatida ko'rishmoqdamiz? Axir, bilimi, ijodi, iqtidori bilan dunyoni lol qoldiradigan qanchadan qancha yoshlarimiz bor deb o'yladim. Bo'yimizni ko'rsatishimiz uchun jahon minbariga chiqmasak bo'lmastigini angladim. Bu minbardan boshimiz ko'rinmasa, oyog'imiz tagiga kursi qo'yadigan davlatimiz borligiga ishonchim komil edi.

Shohida o'sha kuniyoq o'zining kelajagi dasturini tuzdi, xalqaro maydonda O'zbekiston

imiji uchun bor kuchi bilan xizmat qilishni diliga tugdi. Uni tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onasi oldida o'zini qarzidor bilgani kabi ilk qadamlariga ko'ksini tutib tetapoya qilgan Vatani oldida ham burchli ekanini angladi. “Men o'zbek qizlarining nimalarga qodirligini ko'rsataman!” deb o'ziga so'z berdi.

Yoshlar tashkilotlarida ko'plab loyihalaridagi faol ishtiroki bilan suyagi qotgan bu qizning yuragiga tushgan o't mash'alaga aylandi. To'rtta xorijiy tilni mukammal o'rgandi. O'qish, izlanish yo'lidan bir lahza ham chalg'imadi. Tarjimonlikdan til o'rgatishga o'tdi. Kopirayterlik, nashr ishlari bilan ham shug'ullanishni boshlab yubordi. 2021-yilda esa “Shine Qizlar Akademiyasi”ga asos soldi. Akademiyada to'rt tildagi o'quv dasturlari, xalqaro metodika asosida kurslar, imtiyozli dasturlar va C1 darajagacha bilim beradigan mukammal tizimni shakllantirdi. 500 nafardan ortiq qizlarning xorijiy tillarni bepul o'rganishiga imkon yaratdi. Ulardan ellik nafarining ishga joylashishiga yordam berdi. Muntazam ravishda forum va seminarlar tashkil qilib, xotin-qizlarni shaxsiy rivojlanish, o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon etishdan cho'chimaslik, har sohada faollikka erishish, xalqaro maydonga dadil kirib borishga targ'ib qildi. Xalqaro antologiyalar tuzib, ularni chop etishga kirishdi, taqdimotlarini katta kontentlarda tashkil etishga harakat qildi. Bu antologiyalarda Vatandan olisda turli sohada faoliyat olib borayotgan minglab yurtdoshlarining ijodiy ishlarini e'lon qilib bordi.

Shohida Yusupova dunyoning yetakchi telekanallari, xalqaro forum va media platformalar orqali o'zbek xotin-qizlarining yuksak ma'naviy kuchi va o'ktam qiyofasi haqida turkum chiqishlar

qilib kelmoqda. “Iste'dodli qizlar” – Ozarbayjon, “Ilhomlantiruvchi ovozlari” – Misr, “O'zbekiston antologiyasi” – Xitoy, “O'zbekistonning umidli chechaklari” – Turkiya, “O'zbekiston qo'shig'i” – “Amazon” platformasi xalqaro loyihalarida uning tashabbuslari bo'y ko'rsatdi.

– Bir yilda ellik mingga yaqin xotin-qizlar dasturlarimizda ishtirok etmoqda, – deydi u. – Ko'pchiligi bilan yuzma-yuz ko'rishdim. Bugun ularning bir qanchasi forumlarda qatnashib, xalqaro grant va stipendiyalarni qo'lga kiritishyapti. Ozarbayjon va Turkiya davlatlarida o'tkazilgan Hamkorlik va do'stlik festivallarida ellik nafardan ortiq o'zbek qizlarining ishtirok etishiga sababchi bo'lganidan suyunaman. “Shine Qizlar Akademiyasi” – har bir qiz uchun katta imkoniyat maydoni. Yuksak marralar sari ilk qadamini tashlashga jur'ati yetmay turganlarni dadil bo'lishga ilhomlantirishni o'zimga vazifa qilib belgilaganman. Akademiyamiz a'zolarining har birida butun olam bilgulik bilim, shijoat va liderlik qobiliyati bor. Biz shularni yuzaga chiqarishga ko'maklashyapmiz, xolos. Akademiyamiz qizlarining yigirma nafardan oshiq'i davlat mukofotlariga sazovor bo'lishgani ham buning dalilidir.

Ha, Shohida har qanday qiyinchilikda ham orzularidan voz kechmaydigan, o'ziga ishonchi baland o'zbek qizlarining yetuk obrazini yaratyapti. Bu yo'lida o'zi ham ildamlilik bilan yangi pog'onalarga ko'tarilib, ularga shaxsiy namuna bo'lmoqda. U o'n sakkiz yoshida Hindistonning “Sahitya Shri” xalqaro mukofotini qo'lga kiritdi. Universitetni tugatguniga qadar Misr, Turkiya, Ruminiyada o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etdi. AQShdagi nufuzli Garvard universitetining “Rahbarlik va



boshqaruv”, Berlin xalqaro biznes institutining “Marketing va kommunikatsiya” yo'nalishi bo'yicha maxsus kurslarida o'qidi. Dunyodagi eng qadimiy oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblangan Italiyadagi Siyena universitetida “Xalqaro madaniy diplomatiya” yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichini tamomladi. Ruminiyaning Odissey xalqaro festivalida Gran-pri sohibi bo'ldi. Oksford universiteti va Buyuk Britaniya Lordlar palatasi tomonidan tashkil etilgan nufuzli tanlovlarda ham g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, bugun Shohidaning “Shahide” ayollar uchun liboslar brendi hamda “Shiny travels” tur kompaniyasi ham samarali faoliyat ko'rsatmoqda. U otasidan halol va to'g'riso'z bo'lish, o'z ustida doimiy ishlash, har lahzadan unumli foydalanishni o'rganib kam bo'lmadi. Oddiy oiladan chiqqan sodda qishloq qizi ham tinimsiz o'z ustida ishlasa, chet elning eng nufuzli universitetlarida o'qishi, xalqaro maydonda o'zini ko'rsatishi mumkinligini namoyish etdi. Yuzlab o'zi kabilarga ilg'or faoliyat uchun amaliy yo'l xaritasini chizib, o'z qobiliyati va iste'dodini ko'rsata olishlariga ma'naviy poydevor yaratdi.

Yana nima deymiz, barakalla, Shohida!

Muhayyo RUSTAMOVA

“YOSHLIK” JURNALI – MEHMONIMIZ!

Bugun Internet vositalari deyarli hamma sohada qo'llanilyapti. Xususan, adabiy-tahliliy faoliyat turi bo'lgan adabiyotshunoslik va adabiy tanqid uchun ham Internetning muqobil minbar vazifasini bajarayotgani tabiiy hol. Xo'sh, o'zbekistonliklar qaysi Internet tarmoqlaridan foydalanyapti? Yanayam aniqrog'i, qaysi tarmoqlarda adabiy-tanqidiy bahslar kechyapti?

ZAMONAVIY MUNOZARA MAYDONI

2024-yilda e'lon qilingan adabiy tanqidga oid chiqishlar yuzasidan mulohazalar

“Facebook” tarmog'i foydalanuvchilar uchun nafaqat maqola e'lon qilish, ayni paytda u haqda boshqalar bilan faol muhokama yuritish imkonini beradi. Ushbu tarmoqda 2024-yili katta tajribaga ega adabiyotshunos olimlar Abdulla A'zam, Qozoqboy Yo'ldosh, Nurboy Jabborov, Ulug'bek Hamdam, Sanobar To'laganova, Nodira Afoqova, Jabbor Eshonqul, sohada o'rin topib borayotgan Shahnoza Nazarova, Sa'dullo Quronov, Akrom Malik, Xurshid Abdurashid, ijodkor-tanqidchilar Go'zal Begim, Shukur Jabbor va boshqalarning tahliliy-tanqidiy maqolalari e'lon qilingan. Bundan tashqari, rasmiy ilmiy darajaga ega bo'lmagan, adabiyotga ixlosi o'laroq adabiy-tahliliy qarashlarini turli shakllarda bayon etib kelayotgan hamyurtlarimiz – ularning aksari yoshlar – ham bor.

Professor Qozoqboy Yo'ldoshning “Eskirmas tuyg'ularning yangicha tasviri” sarlavhali maqolasida adib Orziqul Ergashning “Oqar daryo” nomli yangi kitobi haqida so'z yuritilgan ekan, muallif, garchi ko'p qo'l urilgan mavzuda qalam tebratsa-da, “ko'pchilikka o'xshaydigan odamlarning boshqa bitiklardagiga o'xshamaydigan qismatini o'ziga xos yo'sinda tasvirlanganiga” e'tibor qaratadi. Olim Orziqul Ergash asarlarida obrazlar xarakteri betakrorligini (“har bir obraz faqat o'zigagina xos bo'lgan minazga ega shaxsiyatlar sifatida aks ettirilgan”), adabiy qahramon xatti-harakatlarini mantiqiy jihatdan asoslashda ko'nikilgan qoliqlardan yurilmaganini (“Adabiyotimizda ko'proq adabiy qahramonlarning har bir xatti-harakati sabab-oqibat asosiga qurilgan, har bir personajning tutumi qandaydir yo'sinda mantiqiy izohlanishi lozim

bo'lgan badiiy tasvir usuli qaror topgan. Holbuki, har bir odam o'z hayoti davomida nega shunday qilganini tushuntirib berolmaydigan bir dunyo xatti-harakatlarga yo'l qo'yadi”), shuningdek, xususiy maishiy holatlar orqali umumiy milliy ma'naviy qiyofa ishonarli tasvirlanganini dalillaydi. Hisobot davrida filologiya fanlari doktori Nurboy Jabborovning O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodi haqidagi “Shoirilari yolg'on aytisa o'ladi el...”, Nodira Afoqova ijodi to'g'risidagi “Kimni so'nggi yo'lga kuzatding, dunyo?...” singari maqolalari e'lon qilindi. Olim “She'riyatning, adabiyotning mezon – haqiqat” tamoyili asosida “Haq va haqiqatga zid asar qanchalik mahorat bilan yozilgan bo'lmasin, hech qanday qimmatga ega bo'la olmaydi” degan g'oyani ilgari suradi. Bunda asosiy o'rnak ulug' shoirdan olinadi: “Buyuk Alisher Navoiy bobomizning ijod konsepsiyasi asosida ham ana shu mezon turadi”. Muallifga ko'ra, Usmon Azim she'riyatida ham haqiqatga sadoqat ustuvor g'oyadir.

Ham olim, ham ijodkor Ulug'bek Hamdam ijtimoiy tarmoqlarda faol. Hisobot yilida e'lon qilingan Ismoil G'aspralning “Sultonlar suhbat” asari haqidagi “Bir asar tahlili”, Anorning “Sirli mehmonxona” nomli qissasi misolidagi “O'tish davri – ozarbayjon adabiyoti ko'zgusida”, Tillaniso Nuryog'di ijodiga bag'ishlangan “Gul” va “tosh” bilan kutib olingan ijodkor, Abdulla Chimirzayev hikoyalari tahlilidan iborat “Aytari bor yozuvchining kelajagi bor”, adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldosh haqidagi “Sinch” – o'quvchi va badiiy asar o'rtasida bir ko'pri” singari maqolalari ham bunga misol. Shu bilan birga, Internet tarmoqlarida badiiy asar tahlilini

o'zgacharoq yo'sinda ifodalayotgan olimlarimiz ham bor. Masalan, akademik Abdulla A'zam o'z bitiklarida adabiy an'analari, xususan, aruz vazni badiiyatidan yoshlarni ko'proq xabardor qilishga e'tibor qaratmoqda. Uning Feysbuk tarmog'idagi bitiklari qisqa va aytish mumkinki, direktiva xususiyatiga ega. Deylik, Usmon Azim ijodi haqidagi maqolasida fikrlarini bir necha bandeda, raqamlagan holda keltirib, shoirning o'ziga xos jihatlarini nimalardan iboratligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, 2-band: “Usmon Azim she'riyati chindan ham mahobatli, afsuski, u yetarlicha o'rganilyapti, targ'ib qilinaypti, deyish qiyin”. Yoki 4-band: “Usmon Azim o'z ijodida she'riyatning barcha unsurlariga bekami ko'st amal qiladi”. Aytish kerakki, ustoz adabiyotshunosning bunday urg'uli fikrlarini sxolastik tezislari deb bo'lmaydi, chunki u doimiy ravishda she'riyat qonun-qoidalariga rioya etish madaniyatini amaliy misollar bilan targ'ib qiladi. Bu esa o'quvchilar, ayniqsa, yoshlarning diqqatini Usmon Azim mahoratiga qaratishi shubhasiz.

Feysbukdagi adabiy munozaralar haqida so'z ketganda yana shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asarlar haqida kitobxonlarning munosabati, an'anaviy shaklda, faqat og'zaki gurunglarda qolib ketardi, juda kam qismigina bosma nashrlarda kitobxonlar fikri sifatida e'lon qilindi. Internet bu borada ham o'zgarish yasadi. Ya'ni, Internet tarmoqlarining yana bir o'ziga xosligi – barcha foydalanuvchilar o'zlarining shaxsiy munosabatlarini bildirishidir.

Maqolaning to'liq matnini
“Yoshlik” jurnalining navbatdagi sonida o'qiydiz.

MING QARG'AGA BIR KESAK

Bugun biz haqoratlamagan biror hurmatga loyiq odam qoldimi?!

Olomon sharafli kishilarni yoppa talarga kirishdi. Go'yo iste'dodli kishilarni haqoratlagan iste'dodli-yu, talangan iste'dodsiz bo'lib qoladiganday. U tadbirkormi, ulamomi, san'atkormi, barchasining sha'niga turli gaplarni aytib, haqoratladi, so'kdi, shu ishi bilan o'zini botir sanab, birdaniga baxtiyor bo'lib qoldi.

Ko'plar bunday ishlarning hadisini olib, tajriba orttirdi, ijtimoiy tarmoqlar millat ulug'larini haqoratlash uchun “mahorat saboqlari” o'tiladigan qulay vositaga aylantirildi.

Endi kunda-shunda biror kishini haqoratlamasa bo'lmay qoldi. Bugun ijtimoiy tarmoqlar asabi tarang, og'ziga kuchi yetmaydigan odamlar bilan to'lib-toshgani ham bor gap.

Eslaysizmi, ijtimoiy tarmoqda tanikli bir ulamoning qo'lidagi soati rosa muhokama bo'lgandi. Uyatni bir chekkaga qo'yib, soatning necha pul turishini, uni qanday olganini, sovg'a qilingan bo'lsa, qaysi xizmati uchun ekanidan gapni boshlab, shu odamni holi-joniga qo'yishmadi...

Holbuki, u ko'plab yoshlarning nikohini qiygan, ajdodlarimiz haqqiga duolar qiladigan, shu millatni ezgu yo'lga boshlab turadigan chinakam ma'rifatparvarlardan edi.

El-ulus taniydigan u zot bugun oramizda yo'q. U ibratli hayot yo'li bilan ko'plarga o'rnak bo'lib kelardi. Ammo olomon shu odamni yoppa talar qilayotganda, “Ey baraka topgur, insofing bormi?” deb aytmadik.

Nega?

Nima uchun?

Nazarimda, uyaldik, og'zi buzuqlar bilan teng bo'lamizmi, deb o'yladik. To'g'ri, bunday paytda farosatli odam

borki, o'zini chetga oladi. Masalaga aralashgisi kelmaydi. Ammo dono xalqimiz “Ming qarg'aga bir kesak”, deb bekorga aytmagani. Qora quyunday bosgan qarg'ani ham bir kesak bilan quvgandek, gap-so'zining toshi bor kishilar “lom-mim” deb qo'yishi kerak emasmi?

Negaki, olomonchilik kayfiyati millatning durdek farzandlarini oyoqosti qilib ketaversa, buning badali og'ir bo'lishini ko'rdik, bildik...

QADRIYAT

(piyoz tilidan)

Ishim shudir aslida – Ko'zdan oqizarman yosh. Ayrimlar savol berar: – Nega qalbing buncha tosh?

– Ayb mendamas, azizlar, Qilmangiz zinhor ta'na. Ko'zdan yoshni oqizish Ajdodlardan an'ana.

KECHIKISH

– Har doimgi vaqtindan Kelding bir soat o'tib. O'g'lim, nega kech qolding? Ko'zim to'rt bo'ldi kutib.

– Oyi, biroz yolg'onga, O'xshaypti so'zingiz. Ikkinchi ko'rdim, qani – Qolgan ikki ko'zingiz?!



Sardor SA'DULLAYEV

O'ZBEKISTON

Dunyoda yurtlar ko'p – so'lim, ulug'vor, Yetti iqlim ichra dovrug'i ketgan. Birovi kuch-qudrat bobida nomdor, Boshqasi gullashning avjiga yetgan.

Biri mo'jizaga ko'milib yakka, Ilg'amas o'zining ildizlarini. Biri ehromlarin ko'tarsa ko'kka, Biri ko'z-ko'z qilar dengizlarini.

Lekin bir ma'vo bor yurtlar ichida, Uning har toshiga hikmat ekgan. Qutsol tuprog'ining har qarichida Bobolarim kindik qoni to'kilgan.

Uning yo'llaridan, – o'y'lardim, – nega Arimas sayyoh-u ziyoratchilar?! Ey yurt, endi bilsam, dunyo poyingga Faqat bir niyatda bosh urib kelar:

Asrlar qa'riga sirday sochilgan Jahon tarixining beshigin izlab! Asli bir paytlari yerdan ochilgan Yettinchi osmonning eshigin izlab!

Akif BAG'IR,
ozar shoiri



TARIXDAN SADO

“Tarixni g’oliblar yozadi” deyilish gap bor. Agarda o’sha “g’olib” bosqinchi maqomida bo’lsa... bunday tarixga mag’lublargina emas, maymunlar ham yig’lashi shubhasiz.

Turkistondagi uchta mustaqil xonlik chor Rusiyasi tomonidan bosib olingach, xuddi shunday “g’olibona tarixlar” yozilgan. Bosqinchi qo’shin safida kelgan turli maqom va darajadagi olimlar va keyinchalik o’lkani o’rganish uchun yuborilgan mutaxassislar yozgan va ko’p nusxada chop qilingan asarlar targ’ibot vositasi sifatida oshig’ich boshqa tillarga tarjima qilingan. Ko’pdan ko’p kitoblar, yo’inomalar, tadqiqotlarda oshkora soxtaliklar, vaziyat va haqiqiy hayotga biryuqlama qarash, ularni “sinfiy nuqtayi nazaridan baholash”ga urinish holatlari yaqqol ko’zga tashlanadi. Taassufki, o’sha “g’olibona tarixlar”ga deyarli bir asr davomida o’zimizdan chiqqan olimlar e’tiroz bildirishga jur’at qila olmaganlar, aksincha uni “birlamchi manba” sifatida e’tirof etib, “eski qo’shig’ni” baralla jo’rovoz kuylab yuraverishgan.

...1900-yili Toshkentda “Amudaryo ocherklari” (“Quyí Amudaryoda yer egaligi – Amudaryo bo’limining Sho’raxon hududida qishloq xo’jaligi munosabatlari misolida”) nomli qalingina kitob chop qilingan. Asar muallifi O.Shkapskiy. Bu kimsa mustamlaka Turkistonga yuborilgan o’lkashunos bo’lib, o’z asarida xo’jayinlari oldiga qo’ygan vazifani haddi a’losida bajorgan, keyinchalik ilmiy darajasi o’sib, mukofotlar ham olgan.

Shkapskiy kitobida mustamlaka davrigacha Xiva xonligi tarkibida bo’lgan Sho’raxon bекligidagi yer maydonlari egalari, soliq to’lovlarí, shuningdek, amalda mavjud zamin-dorlik, yerni ishlashdagi o’zaro munosabatlar haqida so’z yuritadi. O’zi o’rgangan davr – XIX asrning oxiridagi holatni xonlik bosib olingan yillardagi vaziyat bilan “taqqoslaydi”. Bunda Turkiston general-guberna-tori Kaufman tomonidan Amudaryo bo’limiga yer va soliq tizimining tash-kil etilishini o’rganish uchun 1875-yil-da yuborilgan maxsus komissiya to’plogan ma’lumotlarga ham suya-nadi. Shulardan kelib chiqib, Sho’raxon bекligida go’yo o’zi tadqiq qilgan yer va soliq tizimi haqidagi xulosalarni butun xonlik hududiga taqaydi.

Shkapskiy mazkur asarida xusu-siy yerlarning hammasini ikki tur-ga – “yorliqli mulk” va “atoyi mulk”ka bo’lib ko’rsatadi. Muallif fikricha, bu maqomdagi yerlar bir-biridan farq qilmasmish. Aslida esa “atoyi mulk” deb otameros o’tadigan yerlarga aytiladi. “Yorliqli mulk” esa xon



tomonidan saltanat uchun qaysidir xizmatlari evaziga in’om qilingan, ya’ni xon alohida yorliq bergan yerdí.

Muallif yozadi: “Haqiqatda buning o’zi soliqlar to’lashdan butunlay ozod qilib qo’yishning o’zginasidir”. (O’sha kitob, 113-varaq).

Shu o’rinda muallif o’ziga o’zi qarshi boradi. Vaholanki, kitobning 11-varag’ida muallif “...40-50 ming tanob yeri bo’lgan kishilardan olinadigan soliq har bir tanobga 1 tiyinning yuzdan biriga to’g’ri keladi” degan iddaoni ilgari surgan. O’sha davrda ruslar muomalaga kiritgan pul birligining 1 tiyinigá nega bu o’rinda urg’u berilmog’da? Maqsad aniq – go’yo “xonlikda adolatsizlik hukm surgan, xonga yaqin mulozimlar katta yer maydonlari uchun soliq to’lamagan yoki nomiga to’lagan” degan iddaoni ilgari surib, shu orqali o’zlari “madaniyat va adolat olib kelishgani”ni isbotlashdir.

Mustamlakagacha bo’lgan davr-da – XIX asrning 50-60 yillarida xon-likdagi yerlardan olingan soliqlar miqdori haqidagi arxiv hujjatlarida esa boshqacha holatga duch kelamiz. Xonlikdagi har bir qarich yer, yaylov va tabiiy ko’llar hisobda bo’lgan va ulardan amaldagi tartibga ko’ra soliq undirilgan (Ma’lum ma’noda adolatsizliklar bo’lganidan ko’z yuma olmaymiz). Zero, soliq har bir davlat poydevori negizi hisoblanadi.

Shkapskiy xonlikda amaliyotda bo’lgan aholining “bevatán”, “koranda”, “vaqfkor”, “ijarador”, “yarimchi”, “chorikor” kabi qatlamlarini tadqiq qilishda ham ko’p chalkashliklarga yo’l qo’yadi. “Dehqon” tushunchasini “mulkdor” tushunchasi bilan adashtirib, shundan kelib chiqib, xulosalar beradi.

O’sha davr ijtimoiy hayotini ko’z oldimizga keltirsak, shunday manzara namoyon bo’ladi: bevatán – davlat, koranda – xususiy, vaqfkor esa vaqf yerlarini ijaraga olib ishlovchi ilkida yeri yo’q fuqarolardir. Shuningdek, zamin-dorlardan mavsumda yerni

ellikka-ellik tarzida ijaraga olib ishlovchi yarimchilar yoki yetishtirilgan hosilning to’rtidan biriga egalik qilishi belgilangan chorikorlar masalasida ham shu qadar chalkashib ketadiki, bir o’rinda shu toifadagilar “ma’lum miqdorda soliq to’laydilar” desa, sal o’tmay o’z fikrini rad qilib, “ular soliq to’lamas, soliqni ijaraga bergan yer egasi to’lardi” degan gapni aytadi.

Yuqoridagi toifalar haq-huquqlarini qisqaroq tushuntirib o’tamiz.

Yarimchi maqomidagi ijarachi zamindordan ma’lum tanob yerni oladi. Bunda yer, unga ishlov berish uchun barcha mehnat qurollari, suv va tabiiy o’g’itlarni berish zamindor zimmasi-da bo’ladi. Yarimchi mavsumda yerni ishlaydi, hosilini parvarishlaydi, yig’ishtirib oladi. Keyin umumhosil ikki tomon o’rtasida teng taqsimlanadi.

Chorikorda bu boshqacharoq. Yer egasi ma’lum tanob yeri, mehnat qurollari, suv va tabiiy o’g’itdan tashqari chorikorga har oyda ma’lum miqdorda maosh to’laydi – kunlik ovqatini ham zimmasiga oladi.

Shkapskiy “bevatán” maqomidagilar borasida ko’proq “adashadi”. Uning yozishicha, “bevatánlar 14 440 xo’jalik” emish. (Yana bir o’rinda “mulkdorlar va bevatánlar 34 460 xo’jalik” degan qaydiga ko’zimiz tushadi).

O’n to’qqizinchi asrda “bevatán” so’zining ikki xil: lug’aviy va maxsus ma’nosi bo’lgan. Lug’aviy ma’nosi – yersiz, maxsus ma’nosi – davlat yer-larini nasliy ijaraga oluvchi.

Bundan anglashiladiki, bevatán maqomidagi fuqarolarning uy-joyi, kichikroq tomo’raqasi bo’lgan, ammo ekin yerlari bo’lmagan. Ular davlat, ya’ni xonlik yerlarini ijaraga olib dehqonchilik qilishgan. Ijaraga bir mavsum emas, bir necha yillarga olishgan, yer nasliy, ya’ni farzandlariga ham shu maqomda o’lgan.

Shkapskiy kitobida bevatánlar xonadoni soni ko’pligiga alohida urg’u berarkan, bu bilan go’yo “xonlikda nafaqat yerlik, balki uy-joysiz odamlar

ko’p bo’lgan” degan fikrni o’tkazishga uringan. Agarda o’sha davrda xonlik hududida 600 ming kishi yashagani, har oilada o’rtacha besh kishi borligini inobatga olsak, yersiz fuqarolar soni umumaholining 10 foizdan sal ko’prog’ini tashkil qilganini bilish mumkin.

Shkapskiy yollanma ishlovchilarni umumnom bilan “dehqon” deb ataydi: “Dehqon – batrakdir, ya’ni yer egasi tomonidan dala ishlariga va boshqa ishlarga yollangan ishchidir. Ish muddati, odatda, bir yil, ish haqi – dehqonga kiyim-bosh va 20-25 tilla puldan iborat.

Dehqonlarning turmush sharoitlarini ularga bir yilga beriladigan kiyim-boshlar aniq ko’rsatib turibdi:

1. Bitta cho’g’irma (popoq)
2. Bir juft etik.
3. Bitta to’n.
4. Bitta belbog’.
5. Bitta ich kiyim (ko’ylak-ishton).

Tuyalarga qarovchilar yana bir dona po’stin olar edi. Katta yer egalari-ning zulmiga duchor bo’lgan dehqonlar (qarzdor dehqonlardan boshqa) o’zlarining ish sharoitlari yuzasidan uch guruhga ajralar edi:

Birinchí guruhning bir yillik ish haqi 10 tilla edi. Bu guruhdagi dehqonlar yozda dalada ishlab, qishda bo’lqovchi bo’lib ishlar edi. Ularning yillik ish haqi 25 tillagacha bo’lgan.

Ikkinchi guruhdagi dehqonlarning ish haqi 15 tilla bo’lardi. Bu guruhdagi dehqonlar yozda dalada ishlab, qishda xo’jayinining juvozini haydashardi.

Uchinchi guruhdagi dehqonlar yozda dalada, qishda tuyá bo’lqovchi bo’lib ishlar edi. Ularning yillik ish haqi 25 tillagacha bo’lgan.

Dehqonlarning bir kunlik ovqati: uchta obi non va bir marta go’shtsiz ovqatdan iborat bo’lardi. Go’shtli ovqat haftasiga bir marta berilardi.

“Dehqonlarni shunday eksplua-tatsiya qilish” chor ma’murlari o’lkada tartib o’rnatguncha davom etdi...”

Muallif shu o’rinda maqsadini yashirmaydi – Xiva dehqonlarini xonlik zulmidan ezilganiga alohida urg’u beradi. Ammo o’sha paytda xonlikda muomalada bo’lgan bir tillaning qiymati qanchaligi “esiga kelmaydi”. Xonlik zarb qilgan tilla tarkibida o’n gramm sof oltin bor pul birligi hisoblangan. O’sha vaqtda bozorda bir bosh ho’kiz yoki otni 6-7 tillaga xarid qilish mumkin edi. Bir tillaga ikki-uch bosh qo’y berardi.

Biz shu o’rinda “ezilgan dehqonlar”ga berilgan kiyim-bosh (o’sha davrda po’stin hiyla qimmat turishini aytamiz, xolos) va kunlik ovqat qiymati hozirgi o’lchamlarda qancha turishini taxmin qilamiz. Tuya boqishga yollangan “bechora dehqon” bir yilda kiyim-bosh, kunlik ovqatdan tashqari

chorak kilo oltinni ish haqiga olishiga e’tibor bering. Bu bugungi oltin narxida hisoblasak, qariyb 347 million so’m-dan oshiqroq bo’ladi. Bu raqamni kunlikka bo’lsak salkam bir million so’m-dan to’g’ri keladi. Yomonmi?

...Shkapskiyning kitobida keltirgan fakt va ma’lumotlar 1949-yilda chop qilingan ko’p tomlik “O’zbekiston tarixi” kitobiga to’la ko’chib o’tgan. Ushbu ko’p tomlik kitob ustida ishlagan mahalliy olimlardan biror-tasi yaqinda – otalari zamonida amaliyotda bo’lgan holatni eshitgan (ayrimlari bolalik chog’larida ko’rgan bo’lishlari ham mumkin) bo’lsalar-da, e’tirozsiz qabul qilib, o’zlaricha “xonlik davrining haqiqiy tarixini yaratishgan”.

To’g’ri, akademik M.Yo’ldoshev 1959-yilda chop qilgan “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” asarining ikkinchi bobida Shkapskiy kitobida keltirgan ayrim holatlarni “chalkashish”, “juz’iy kamchiliklar” sifatida tahlil qiladi. Muallif yer egalari va ularda ishlovchilar toifalarini adashtirib yuborgani, “ayrim o’rinlarda fakt va raqamlarni faqat bir hudud – Sho’raxon bекligidan olib, uni butun xonlikka tatbiq qilgani”ni eslatadi, ammo muallifning bundan ko’zlagan maqsadi nima ekanligi masalasiga kelganida sukut saqlaydi.

Maqsad esa yuqorida eslatil-ganidek, xonlik tuzumini zulmkor, adolatsiz ko’rsatish va buni dunyo hamjamiyatiga isbotlab berish edi. Go’yo’ki shu zulmga barham berish, adolatni o’rnatish uchun kelgan chor Rusiyasi bosqinini xaspo’shlashdan iborat bo’lgan.

Shkapskiy o’z oldiga qo’ygan tadqiqot manbalarini osmondan olgan-dek go’yo. Atay kelib, necha oylab Sho’raxon-da tadqiqot-surishtiruvlar o’tkazgan bo’lganida xonlik davrida turli maqomlarda yer ekib, ro’zg’or qozonini qaynatgan keksalar va hatto shu vaqtda bevosita shu maqomda yerlarni ijaraga olib, ishlayotgan kishilardan so’rab-surishtirishi kerak edi-ku. Yonida yerlik xalq tilini yaxshi biladigan tilmochi bo’lgandir axir?

Taxminimizcha, bu “o’lkashunos” Amudaryo okrugí markazi Petro-Aleksandrovskdagi rus ma’muriyati mehmonxonasidan tashqari chiq-magan. Har kuni bosqinchi zobit-lar davralarida ichkilikbozlik qilib, o’sha ma’murlardan olingan xayoyli ma’lumotlarni yon daftariga qayd qilgan va Toshkentga qaytib, qaysidir so’lim chorbog’da o’tirib kitobini qoralagan.

Uni hatto Xiva xonligi arxividan o’ziga o’xshagan yana bir “olim” – Ivanov olib ketgan yer, mulk, soliq miqdorlari ko’rsatilgan hujjatlar ham

qiziq-tirmagan. Qog’ozlar tilsiz bo’lsa-da, haqiqatni gapirishi mumkinligini bila turib, tarixchi uchun o’ta muhim bo’lgan tadqiqot manbayi – arxiv hujjatlariga murojaat qilmagan. Sabab – maqsadi tarixni adolat andozasida yozish bo’lmagan.

Asl haqiqatni ko’rsatish o’rniga tinimsiz “shap-shap”lab, “shaftoli” deyishdan chekingan Shkapskiy o’ziga o’zi qarshi borganini ko’rsatib beruv-chi asl ma’lumotlar xonlik arxivida borligi, ularni qiyosan solishtirish shartligini “unutganini” bir raqam yaqqol ko’rsatadi. Hali xonlik bosib olinmasidan ilgari Amudaryoning o’ng qirg’og’ida 1,8 million tanob yer bo’lib, uning bir million tanobi dehqonlar qo’lida bo’lgan. (Kauf-man tuzgan komissiya xonlikdagi 1850-1860-yillardagi yer egaligini o’rgangan). 1890-yilga kelib oddiy dehqonlarga tegishli yer maydonlari ikki hissaga kamaygan. Bundan anglashiladiki, o’z ilkiga o’tgan xonlik hududida adolat o’rnatmoqchi bo’lgan bosqinchilar atigi o’ttiz yil ichida yerli xalqning ikki hissa qashshoqlashishiga sababchi bo’lishgan.

...Jadid bobolarimiz yaqin va uzoq o’tmishni xolis tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni ochiq-oshkor ko’rsatib berishga kirishganliklarini ular muntazam chop qilgan vaqtli nashrlardagi maqolalar mazmun-mohiyatida ko’ramiz. To’g’ri, ular xonlik tuzumini birdan bir adolatli boshqaruv tuzumi deb hisoblashmagan, ammo o’sha tizimda ko’pgina tarmoq-larda adolat hukm surganidan ko’z yumishmagan. Ayniqsa, qishloq joylarda mavjud ekin yerlarining taqsimlanishi, ulardan olinadigan soliqlar, shar’iy qonunlar ijrosi qay darajada olib borilgani haqidagi chuqur tahliliy, mulohazali chiqishlari davriy matbuotning sarg’aygan sahifalaridan turib asl haqiqatni hali-hamon namoyon qilyapti. Jadidlar shu bilan birga, Shkapskiyga o’xshab “shap-shap”lab tariximizni atay bu-zishga uringan kelgindi olimlarga qarshi fikr-mulohazalarini bildirishga jur’at qilishgan.

Afsuski, vaqt kelib ular “buzg’unchi”, “burjuaziya tarafdorlari” kabi tamg’alar bilan badnom qilindi. “Shap-shap”-lashdan nariga o’tmaganlarni bayroq qilib ko’tarishdi.

Yana bir mulohaza: sovet davri-da ism-shariflariga “buyuk” nisbasi qo’shilgan Bertels, Bartold, Kun kabi sharqshunoslar yozgan asarlarni ham tanqidiy-tahliliy o’rganish vaqti kelmadimikin?

Ro’zimboy HASAN,
jurnalist

Boshlanishi 1-sahifada.

Umumiy yer maydoni bir million gektar. Bog’ hududiga har yili saksovul, yulg’un, qorabaroq kabi butasimon o’simliklar ekilmog’da. Masalan, “Axantay” hududining 250 gektariga saksovul ko’chati ekildi, 5 gektarida esa ko’chat parvarishxonalari rivojlanmog’da. Shuningdek, bu yerda sahro jensheni deya e’tirof qilingan sist anxé va jung’or qumso’tasi, qoramiq kabi ming dardga davó o’simliklarni uchratishingiz mumkin. Yer yuzida yulg’unning yulga yaqin turi bo’lib, bizda 12 tasi o’sadi. Bir tup yulg’un o’n yil ichida 50-60 tupga aylanadi, urug’i shamolda uchib yerga tushsa bas, bahorda unib chiqaveradi.

O’zbekiston Ekologik partiyasi Qora-qalpog’iston Respublikasi partiya tashkilotlari kengashi ijroiya qo’mitasi raisi Aysanam Begimova ham gurgungga qo’shiladi:

– Milliy tabiat bog’i mas’ullari bir qancha istiqbolli loyihalarni amalga oshirmog’da. Xususan, joriy yilda hududga 10 ming nafardan oshiq sayyohni jalb qilmoqchimiz. Buning uchun 30 ta doimiy va 100 ta mavsumiy ish o’rni yaratilyapti. Kutiladigan daromad esa 1 milliard 800 million so’m deb taxmin qilinmog’da.

Qoraqalpog’iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi direktori Ayjamal Yusupova bizni muzey sayohatiga taklif qildi. Tashrif buyuruvchilarni qiziqtirish, ularga hudud haqida batafsil ma’lumot berish uchun Mo’ynoq ekologiya muzeyi hamda Orol dengizi tarixi davlat muzeyi ishlab turibdi ekan.

Ekspонатlar orasida Mo’ynoq tumanidagi baliqchilik sanoati, konserva kombinati ish

“YASHIL DENGIZ” HAYRATLARI



jarayonini aks ettiruvchi fotosuratlar, “Orol jarchisi” deya ta’rif etilgan rassomlar – F.Madgazin va R.Matevosyan yaratgan san’at asarlari, qoraqalpoqlarning XIX-XX asrdagi milliy kiyimlari, mehnat qurollari alohida ajralib turibdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Orol tarixi muzeyi esa tabiat va hayvonot dunyosiga oid qiziqarli ekspo-natlarga boyligi bilan ahamiyatli. Muzeyning ichki dizayni o’tov ko’rinishida bo’lib, tashrif buyuruvchilar uchun Orol dengizi tarixiga oid hujjatli filmlar, videoroliklar namoyish etiladi.

Kechagina dengiz to’lqinlari to’sh urib turgan sershovqin bandgoh endi “Kemalar qabrisoni”ga aylangani qalbmizda hayrat va hasrat hissini qayta uyg’otdi.

2022-yili Qo’ng’iro’t tumanida tashkil etilgan umumiy maydoni 280 ming gektarlik “Borsa

kelmas” tabiat qo’riqxonasi ham sayyohlarni bee’tibor qodirmaydi. Qo’riqxona hududida 300 ga yaqin o’simlik turi mavjud bo’lib, shundan yettitasi “O’zbekiston Qizil kitobi”ga kiritilgan. Saksovul hamda yulg’un hududning qariyb o’n foizini egallaydi. Bu yerda sayg’oq, jayron, olako’zan, korsak tulki, hind asalxo’ri, uzun ignali tipratikan, to’rt yo’lli olachipor ilon kabi jonivorlar yashamoqda. Shuningdek, qo’riqxona to’da bo’lib yuradigan yo’rg’a tuvaloq, bizqaldoq, burgut va qashqaldoq kabi noyob qushlar uchun qulay makon hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko’ra, “Borsa kelmas” qo’riqxonasida aniqlangan yigirma uch tur jonzo’tning o’ndan ortig’i Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqining qizil ro’yxatiga kiritilgan.

Mo’ynoqdan bir olam taassurotlar bilan sayohatimiz yo’nalishini Bo’zatov sari burdik.

“Dovudko’l” suv havzasining shimoli-g’arbida joylashgan “Orolbo’yi” milliy tabiat bog’ini aylandik. Ayni paytda bog’ hududida 150 ga yaqin turdagi umurtqali hayvonlar yashaydi, 15 turdagi sudralib yuruvchilar, 116 turdagi qushlar va sut emizuvchilarning 15 turi aniqlangan. Shu jumladan, pushti saqqoqush, kichik qoravoy, vishildoq oqqush, olaqanotli o’rdak, oqdomli yuz burguti, katta burun, O’rta Osiyo cho’l toshbaqasi, olako’zan va boshqalar qatori qirg’ovullar ham tabiatga fayz bag’ishlab yuribdi.

Safariimiz davomida Orolbo’yida tashkil qilingan “Sudoche-Akpetki” milliy tabiat bog’i hamda “Sayg’achiy” landshaft buyurtma qo’riqxonalarida olib borilayotgan bugungi zalvorli ishlar bilan ham tanishdik. Ayniqsa, qariyb bir yarim million gektarda yastanib yotgan “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog’i bilan bog’liq yangiliklar kishini hayratlantiradi.

Ustyurt yurtimizning qishi eng sovuq hududidir. Tabiiy to’siqlarning yo’qligi tufayli u yerga Arktika va Sibir sovuq havó massalari bemalol kirib keladi. Shunga qaramay, bu go’shada o’simlik, hayvonot va qushlarning noyob turlarini uchratish mumkin. Jumladan, qulon, sayg’oq va jayron, yovvoyi to’ng’izlarga duch kelasiz. Bu yerda, shuningdek, qushlarning 100 dan ortiq turi mavjud. Shulardan 52 turi “O’zbekiston Qizil kitobi”ga kiritilgan.

Sariqamish ko’lida vishildoq oqqushlar yashayotgani kishini hayajonga solsa, milliy tabiat bog’ida mahalliy tilda “qizil g’oz” deb

nomlanuvchi flamingolarning qaytayotgani ko’ngilga umid baxsh etadi. Shuningdek, bu yerda “semurg’ avlodi” deya ta’riflanadigan qirg’ovul va kakliklarning ham ko’payayotgani quvonarli hol.

Yaqinda Turkiya davlatining Egey universiteti dotsenti Luc Ortac Onmus “Orolbo’yi” milliy tabiat bog’ining qushlar dunyosini o’rganish uchun keldi. Chet ellik tadqiqotchi-olim qirg’ovullarning jo’ja ergashtirib yurganini ko’rganida “Bu ertakka o’xshaydi! Haqiqiy mo’jiza!”, deb xitob qilgani rost.

Bular nimadan darak beradi? Demak, yo’qlikka yuz tutgan dengiz o’rnida Yurtboshimiz tashabbusi va bevosita sa’y-harakati bilan yashil makon yaratish bo’yicha qilingan ishlar o’z samarasini berayotir. 1,5 million gektarlik Orolbo’yi yer maydonida tashkil etilgan yashil makonda daraxtzorlardan iborat “yashil dengiz” paydo bo’lmog’da.

Davlat buyurtma qo’riqxonalari ham-da milliy tabiat bog’lari esa ana shu ko’ka-lamzorlashtirish ishlariga ko’mak berib, ekologik inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish, halokat ta’sirlarini keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Yarim asrdan buyon Orolqum deya tilga olingan bu joylar endi Orolbog’larga aylanyapti. Bu esa ertangi kunimizga yorqin umidlar bilan birga hamjihatlikda qadam tashlashga undaydi.

Erpo’lat BAXT,
O’zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a’zosi



JAHON AYVONIDA

BOSH KOTIBNING TRAMPGA MEHRI BALAND

AQSh prezidenti Eron va Isroil o'rtasidagi urushni janjallashayotgan bolalarga qiyoslaganida, NATO Bosh kotibi Mark Rytte “dadalar ba’zida koyishga majbur bo’ladi”, deya qo’shimcha qilgan.



Rytte bu orqali Trampning NATO sammitiga jo’nab ketayotgan paytda Eron-Isroil o’rtasidagi mojaroga haqoratimiz munosabat bildirganiga sha’ma qilgan.

DINIY BAYRAMDA OTISHMA

Meksikaning markaziy qismida nishonlanayotgan diniy bayram vaqtida sodir etilgan qurolli hujum oqibatida 11 kishi halok bo’ldi va 20 ga yaqin odam jarohatlandi.



Rasmiylarning ma’lum qilishicha, otishma Irapuato shahrida, Yahyo payg’ambarning mavlidini nishonlash marosimida sodir bo’lgan. Guvohlarning aytishicha, bayram ishtirokchilari o’q ovozlariidan vahimaga tushib, qochayotganda dahshatli taloto’p va tartibsizlik yuz bergan.

Irapuato shahar hokimiyati o’z bayonotida bu hujumni “qo’rqoqlarcha qilingan harakat” deya baholadi. Xavfsizlik kuchlari aybdorlarni qidirishni davom ettirayotganini ma’lum qildi. Voqeadan jabr ko’rgan oilalarga yordam ko’rsatilmogda.

QOIDALAR QAT’IYLASHADI

Portugaliyaning o’ng “Demokratik aliyans”i (AD) tomonidan tuzilgan xos hukumat fuqarolik va migratsiya to’g’risidagi qonunlarga bir qator o’zgartirishlar kiritib, fuqarolik olish bo’yicha qonunchilikni kuchaytirish choralari ko’ryapti.



Vazirlar kengashi tomonidan ma’qullangan va parlamentga taqdim etilgan qonun loyihasiga ko’ra, fuqarolik olishga murojaat qilish uchun mamlakatda yashashning minimal muddati 5 yildan 10 yilgacha oshiriladi.

Portugal tilida so’zlashuvchi mamlakatlar fuqarolari uchun bu muddat 7 yil bo’ladi va hisoblash ular yashash uchun ruxsatnoma olgan paytdan boshlanadi.

G’AROYIB HUJUM

Fransiyada ko’cha musiqasi festivali paytida 150 ga yaqin kishiga shpris sanchilgan haqida mamlakat ichki ishlar vazirligi xabar berdi va kamida 12 nafar gumonlanuvchi hibsga olingani ma’lum qilindi.



Mamlakat bo’ylab millionlab odamlar har yilgi musiqa bayramini nishonlash uchun dam olish kunlari ko’chalarga chiqqan. Poytaxt Parijda rasmiylar jamoat joylarida odatdagidan uch-to’rt baravar ko’p odam yig’ilganini ta’kidlashdi.



Behbudiyning “Farg’ona xotiralari” “Tujor” gazetasing 1908-yil 1-yanvar 17-sonida nashr etilgan. Behbudi samarqandlik hamrohi Abdulhamid mutavalli bilan birgalikda eski Marg’ilon, Yangi Marg’ilon (Skobelev), Xo’jand shaharlaridagi usuli jadid maktablari bilan tanishadi. Darvoqe, Behbudi ushbu sayohatining bir qismini “Farg’ona xotiralari” nomi bilan “Turkiston viloyatining gazetasi”ning 1907-yil 30-dekabr 97-sonida e’lon qilgan edi. Unda muallif Andijondagi usuli jadid maktablari, bir qancha katta madrasalar xususida o’z xulosalarini bayon qiladi. Maqolaning eng muhim jihati Turkiston maktablaridagi ta’lim tili Farg’ona, Samarqand, Buxoro maktablari misolida yoritib beriladi. Quyida e’lon qilinayotgan tabdilda esa Behbudi tabiatiga xos qat’iylilik, jadidona fahm-farosat bilan o’ziga notanish hududlarda ham qorong’i zulmatni aql chirog’i-la yoritib, o’zi va hamrohlari uchun yo’l topishdagi iqtidori yaqqol ko’zga tashlanadi.

Nashrga tayyorlovchi

Xo’qand va Andijon sayohatidan so’ngra 9-dekabrda Marg’ilon shahriga vorid bo’lub maktabi usuli jadidiyni so’rog’lab toptuk. Bir padari rahmat kishi havlisini berib ekan kirib ko’rduk “eski hammom va eski tos” maqoli har qayu yerg’aki maktabi jadid deb borar eduk. Jadiddan asar yo’q. Qayu jadida ujadidga jiddan jadiddur. U jadidga ilmi qiroat, tajvid va ilmi hol, hisob insho jug’rofiya, qiroati turkiy, forsiy tarix o’qulatargan jadidi muntazam maktabni o’zi emas, soyasi timsoli-da yo’q edi. Bu maktabni muallimidan ba’zi nimarsalarni so’raduk, ammo maataassuf javob eshitolmaduk. Xulosa eski Marg’ilonga ko’rgan maktabimizni faqat ismi jadid va o’zi ehtimoli buzulgan qadam bo’lsa. Chunki yalg’uz “Alifbo savti” ila jadid bo’lmas maktabdoriga ba’zi mashvarat va ikki nusxa kitobcha berib, eski madrasalar sari borib tafahhus etib kechqurun chiqib, Yangi Marg’ilon Iskobiluf shahriga borduk.

Bu shahar o’rnini plani xeyli vase’ va muntazam va ammo hanuz kam imorat sukansi oz ekan. Yoz mavsumig’a bu shaharni ob va latofati havo va nazofati yaxshi bo’lsa kerak. Farg’ona oblustini markaz hukumati bu – shahar jadiddur. Muning bir tarafig’a sultonlarga maxsus bir necha mahalla va bog’lar va besh-olti katta masjid bor ekan. Shahar bozorini ichig’a bir katta jome’ masjid, jevorig’a maktabi va bir necha hujralar bordur. Maktabig’a kirduk, 50 nafardan ziyoda shogirdlar bor edi.

JADID MATBUOTI

27-iyun – mamlakatimizda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni. Zotan, 1906-yilning aynan mazkur sanasida Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi Ismoil Obidiy muharrirligida o’zbek jurnalistikasi tarixida ilk milliy nashr – “Taraqqiy” gazetasiga asos solingan. Bu millat ziyolilarining erk va mustaqillik uchun kurash yo’lidagi birinchi so’z minbari edi.

Milliy matbuotga asos solingunga qadar Behbudiy kabi turkistonlik ziyolilar Ismoilbek G’aspralining “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan g’oyaga asoslangan “Tarjimon” (1883–1914) gazetasing muxlisi va muxbiri bo’lishdi. Turkiston ziyolilari gazetani o’qish bilan birga, o’zlari ham xabar, maktub va maqolalari bilan qatnasha boshladi. Xususan, Mahmudxo’ja Behbudi, Oxund mulla Mavdud Ohimov, Mirhasayn Mirrahimov, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Qozi Ziyoddin Mahmud ibn domla va mudarris Fayzrahmat kabi qalam ahlari bu borada faollik ko’rsatdi. XX asr boshlarida vujudga kelgan yangi o’zbek adabiyotining bir avlodi shu gazetani o’qib ulg’aydi, fikri ochildi, millatni tanidi, erkni qo’msadi.

1905-yil chor hukumati oktyabr manifestini e’lon qildi. Matbuot va so’z erkinligiga berilgan bu hujjat Rusiya musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini butunlay o’zgartirib yubordi. Ana shu asnoda birinchi o’zbek gazetasi – “Taraqqiy” nashrdan chiqdi. Uning shiori “Najot: maslakda sabot, to’g’rilikda ijobat” bo’lib, nashr mahalliy aholiga milliy zulm nimaligini, chor imperiyasining mustamlakachilik boshqaruvi mohiyatini anglatishga harakat qildi. “Tarjimon” bu yangilikni birinchilardan bo’lib qutlab, “Turkistonning bunday taraqqiyparvar bir gazetaga ko’pdan beri ehtiyoji bor edi”, deb yozdi. Gazeta sahifalarida “Maqsad va maslagimiz”, “Toshkand, 14-iyun”, “Toshkand, 20-iyul”, “Toshkand, 12-avgust”, “Bizning jahl – jahli murakkab”, “Madrasalarga oid”, “Kadetlar kimlar?” kabi

Muallimidan beradurgan darslarini so’raduk, ba’zi kutubi jadidni ot tutdi. Tariqi ta’lim va tartibig’a qaradukki, Andijon va Marg’ilon maktablaridan ma’nan behroq edi. Jug’rofiya o’qutmoqig’a, xarita oldurmoqlarig’a va yana bir nafar xalifa saqlamoqig’a mashvarat berib chiqduk. Muallimi mullozoda Muhammadni sa’y va hushyorligig’a va jamlagan ba’zi kitoblari’ga qaraganda bora-bora biroz taraqqiy qilishi ma’muldur. Jevor masjidg’a bir yangi imorat ko’rdim, so’radim. Ma’lum bo’ldikim, Hakimboy hoji Nazarmuhammad o’g’li degan bir kishi masjidg’a tegishli yerg’a o’z masorifi ilan bir katta maktabxona solibdur. Xarajoti ming so’mdan o’lsa kerak. Bir necha do’konlar ham solib vaqf qilmoq xabarini eshitdim. Yangi marg’ilonlik qarindoshlarim va janob muruvvatpesha Hakimboyg’a aytdurgan so’zim shulki, hozirgi maktabdortlari hushyor kishi ekan. Ammo ellik-oltmish bolani ta’limig’a bir odam kifoya qilmaydur. Bolalarni vazifalarini olturub yana bir muovin xalifa oldursalar yaxshi bo’lur edi. Va illo bir odam harchand alloma bo’lsa ham ko’b bolag’a haqincha ta’lim berolmaydur. Usuli ta’lim kitoblarni farmoyishi va tajribani natijasi shudur.

Mundan chiqib yana temir yo’li vositasi-la Xo’jand shahriga ozim bo’lduk. Oxshomi soat 10 Xo’jand hattasidan poytung’a o’lturub shaharg’a mutavajjih bo’lduk. Shahar ila vokzal orasi o’n bir chaqirim va muning to’quzi cho’l va uchi “bog’yo’l” ekan. Yo’lga izvoschilikni uyqusi eltib yo’lni bir oz adashib bir necha chuqurlarg’a yiqilib, tiqilib shaharg’a yetkurdy. Ertasi ba’zi oshnolarni ko’rub, mozorlarga duo va fотиhadan so’ngra yangi maktabg’a borduk. Usta Tursun degan bir kishi yaxshi bir katta imoratini muvaqqatan maktabg’a berib ekan, ellikdan ziyoda bolalar o’qumoqg’a mashgul edi. Yangi nimarsalardan alifbo, tajvid, hisob va boshqasi qadima savod kitoblari ekan. Mazkur Usta Tursun marhum bo’lgan bo’lsa ham varasalari ani rioyayi ruhini qilib maktabg’a joy beribdurlar. Alloh hammalarini rahmat qilsun.

Bu maktab muallimi o’rta yosh va Hijoz, Istambul, Hind taraflariga sayohat etgan va qiroati turkiyyag’a mohir, jug’rofiya, tajvid va maktabg’a kerak ilmlarga oshno kishi ekan. Ismi sharifi Hoji Mirhusayndur. Na uchun jug’rofiya ta’lim bermaganlaridan so’radim. “Xalq qabul qilmaydurlar”, dedi. Shogirdlarni kattaroqig’a o’talarig’a ushbu ilmini nofe’ligini to’g’risig’a bayon qilmoqlari uchun muallimni musoidasi-la bir oz bayoni noma berdim, alarni jug’rofiya va hisobg’a tashviy etdim. Bir-ikki nusxa kitobchalar hadya berib chiqduk.

Hozirgi Xo’jand hokimi janob Likoshin to’ra ila bir oz ma’rifatim borligi uchun borib ko’rishtuk. Tarjima qilgan asarlaridan bir-ikki nusxa yodnoma berib, bizni taqdim qilgan asarimizni ham qabul qildilar. Xo’jand shahri kanoridan



Sayyora HALIMOVA, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

bir qator muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid maqolalar bosildi. Tez orada gazeta xalqning sevimli nashriga aylandi. Chor ma’murlari xalq tafakkurida yangi ijtimoiy fikr uyg’otishga intilayotgan “Taraqqiy”ning 20 ta soni chiqqach, tezda musodara qilib, Ismoil Obidiyni qamoqqa olishadi. Shu tariqa, milliy matbuotimizning to’ng’ich gazetasi chiqishdan to’xtadi. Lekin u o’zidan keyin paydo bo’lgan ko’pgina milliy gazetalariga yorqin yo’l ochib keldi.

Matbuot maydonida “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tujor”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg’ona”, “Najot”, “Hurriyat”, “Oyina” nomi bilan bir qator nufuzli nashrlar yuzaga keldi. Bular orqali jadid ma’rifatparvarlari maorif, adabiyot va san’at sohalarini isloh qilishga, xalqning ma’rifiy, huquqiy madaniyatini oshirishga harakat qildilar.

Tarix sahifalarida milliy uyg’onish, millatning o’zligini anglashdek murakkab bir jara-yon yuzaga keldiki, u matbuotning zimmasiga bosh islohotchi bo’lishdek mas’uliyatli vazifani yukladi. Shuning uchun ham mazkur davr publitsistikasining ruhi va mazmunini yangi islohotlar, milliy ozodlik, vatan istiqboli uchun kurash kabi ilg’or g’oyalari tashkil etadi. Bu yo’lda Mahmudxo’ja Behbudi va Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo’jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat kabi ziyoli, ma’rifat

oqatargan Sirdaryo Sayhun nahi va ko’frugini sayohat etib, ba’zi madrasalarini ko’rub so’ngra jug’rofiya va hay’at ilmig’a oshno Mirzo Yusuf janoblarini ko’rmog’ uchun tajassasa qildukki, vatanlarig’a yo’qliklarini botaeassuf xabar olduk. Ba’dinda shoir va adibi mukarram Toshxo’ja eshonni muloqotlarig’a borib shubhatlashtuk. Xo’jand zurafolaridan qori Abdulg’affor, mullo Do’stmuhammad, mirzo Abdulrahmon va g’ayrilari oqshom soati yettilarinda vokzal tarafig’a bizlarni uzotdilar. Soat to’quzga xurujimizg’a mashvarat berdilar. Ammo rafiqim Samarqandiy mullo Abdulhomid mutavallini rohihg’a qarab shitob ila chiqtuk. Poytung’a bir nafar xo’jandiy ham bor edi. Oqshom qorong’i va yo’lda bizlardan boshqa kishi yo’q. Xo’jand bog’yo’li orasidan ketar eduk. Bir ochuq sahrog’a yetib aromabiz tekis yerg’a sur’at ila yo’l olur edi. Xo’jandiy yo’l hamrohimiz vokzal ila shahar orasig’a har zamon o’g’rilar kaming’a va haftada bir-ikki martaba o’g’rilig’i, taroj ushbu sahrog’a voqe’ bo’lub turushi va mundan bir-ikki kun muqaddam bir-ikki yo’lchi mollarini o’g’rilar olgani va shaharg’a tayin bir mahallag’a bir kishini o’ldurganlaridan hikoyat qilur edi. Bu so’zlarni eshitib man ham vaqtsiz bilotahqiq chiqqanimizg’a afsus qilib o’zimizni hifzi Haqq’a havola qilib “Endi neki bo’lsa bo’lur shahardan yarim farsah uzoqlashtuk. Bu yurush bizlarga dars bo’lsun alxayri mo san’a Alloh” deb ketar eduk.

Bir zamon poytunchi dediki yo’lni yo’qotibman. Xo’jandiy hamrohimiz u taraf, bu tarafg’a qarab oxiri bir jihatni ko’rsatdiki, shunga qarab hayda deb. Vokzal chirog’i ko’runmas edi. Oy qorong’i. Havo sovuq. Poytunda noshinosh Xo’jandiy rafiqimizni qiyofati durust va muxavviv kishi emas edi. Poytunchi bo’lsa mazkur kishini ko’rsatgan tarafi yo’lsiz goh urgho do’ng nohamvor yerlardan qit’a masofa etar edi. Yarim soatdan ziyoda muddat qorong’i va noma’lum jihatg’a mutavajjihlan ot chopib yo’l olar eduk. Bir zamon vokzal fonuslari ko’rundi. Yana bir chorak soat qadar goh soy va goh qirg’a ketar eduk. Diqqat ila ma’lum bo’ldiki, fonuslar doim o’ng tarafimizg’a taboid etadur. Man hamrohlarg’a dedim: kerakki fonuslarga mutavajjihlan harakat etsaq, ammo bu ketib turganimiz bil’aks bizni istansadan uzoqlabdur. Hamrohlarimiz zam etdilar, shul borishimiz durust. Yana bir oz ketduk. Qaradimki yana uzoqlashduk. Poytunchini nichlab dedim aqlingni boshingig’a keltur. Qo’rqma shunday ishlar bo’lur. Bilarsanmu qayu tarafga ketib turubsan. Ana ko’rgil doim istansa fonusidan uzoqlashib turubmiz. Ul ablah dedi: “Xotirjam bo’lung man sizni istansag’a yetkurarman va ushbu borib turgan yo’lumni bilarkan”. Man dedim “Xayr bilmayсан. O’ng qo’lg’a hayda va illo yana uzoqlashurmiz”. Ikki hamrohim ila poytunchi zam qilib to’g’ri ketmoqg’a jabr

etdilar. Yana bir chorak soat ketduk. Istansa chirog’laridan nihoyat uzoq tushtuk. Goh ko’runar edi goho yo’q. Oqibat yana turub poytunni nichlab hamrohlarg’a dedim: emdi yana orqamizg’a qaytarmiz va mundan boshqa iloj yo’q. Alar hech vajhsiz inod etib qabul qilmadilar. Man dedim al-on muvaqqamiz g’animatdurki fonuslar goh ko’runur. Agarda rij’atni qabul qilmasangizlar man tushub piyoda shul chiroqg’a qarab ketarman dedim. Alar qabul qilmadilar. Tushdum va alarg’a yana e’tidol ila fikrimni bildurdum. Oqibat ko’ndilar. Emdi o’ng qo’lg’a aroba ila yurmoq nomumkin. Azbaki bir nohamvor edi yana na iloj orqamizg’a qaytuk.

Ko’ngilg’a kelaturg’on tabiiy bir vahm shul ediki: sahrog’a o’g’ri bo’lsa bizni adashganimizni poytun chirog’i ila mushohada etib ehtimol bizg’a tavajjuh qilsa va agarda poytun chirog’ini so’ndursang qorong’u va ham gugurd yo’q edi. Bu fikrlar boshdan kechar edi shahardan xurujimizg’a ikki soatdan o’tdi. Otlar ham charchadi. Rajaatimiz ham yana beroha va ba’zi loy va ko’llardan aromabiz to’rg’a chiqar edi. Yarim soat qadar goh botib, goh haydalgan shudgorlardan kesib arig’larga qamalib oxiri suv ko’llagan bir yerg’a aroba qoldi, tushub ashyolarni ham arabodin olduk. Aroba bir oz jo’nolib yana oti yiqildi. Hamrohimdan biri otqa yordam berdi va poytunchig’a arabani ochmoqig’a buyurub hamrohlarg’a piyoda va mazkur chiroqga qarab yuqlarni ko’tarib yo’lsiz ketmoqg’a mashvarat berdim. Alar yana arabog’a o’lturub ketmoqni tarjih qilur edi. Man dedim xayr fi amanulloh. Biz piyoda ketduk, sizlarni o’z ixtiyoringizg’a qo’yduk deb qo’yaberdim. Bir-ikki daqiqa so’ngra alar ham biza tobean qadam urar edi. Biz ikki nafarni yukimiz bir xurjin ikki putdan ziyoda bir chamadon, uch putg’a yaqin adiyol. Havo sovuqlig’i uchun bir putdan ziyoda chakman va paxtalik to’lnarimiz ham bordur. Manim orqamg’a xurjin va rafiqim mullo Abdulhomid mutavalli tegishig’a mani yukimdin og’urroq chamadon tushub edi. Xo’jandiyini orqasig’a ham bir qit’a bog’langan yuk va qo’lig’a malfoiravanni choynik bor ediki, qopqog’i osilib choynikg’a urub bizni kichkina piyoda karvong’a charaslik xizmatini bir sado marga foformlik ila qilur edi. Va agarda o’g’ri bo’lsa bizg’a jalb etar edi. Biz ketar eduk. Mazkur choynik sadoyi foformiz yo’q qilmoqni Xo’jandiydan iltimos etdim. Iltifotga olmadi. Oxiri qattig’ so’z ila isko’tg’a majbur qildim. Rafiqim mutavalli latifa qilib mustahziyona kular edi.

Samarqandiy muftiy Mahmudxo’ja BEHBUDXO’JA o’g’li

TerDU doktoranti Nodira EGAMQULOVA tabdili.

MILLATNING

darg’alari butun Turkiston o’lkasini kurashga chorladi. Va bunda milliy matbuotdan yangi islohotlarni amalga oshirish maslagida bosh minbar sifatida foydalandi.

Ular ilgari surgan mafkurada shunday muhim ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy masalalar ko’tarildiki, yillar, salkam bir asr vaqt o’tgan bo’lsa ham bu umumbashariy g’oyalar o’z ahamiyatini yo’qotmadi. Jumladan, zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti, ilg’or texnologiyalardan foydalanish, islom dinini qotib qolgan aqida va bid’atlardan tozalash, xotin-qizlar savodxonligi, milliy adabiyot, matbuotni shakllantirish masalalari chuqur va keng tahlil etildi.

Jadidlar matbuoti, publitsistikasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari XX asr boshlarida Turkistonda kechgan o’ta murakkab hamda ziddiyatli ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan bevosita bog’liq. Ya’ni, tarix sahifalariga jadidlik harakati va jadidlar nomi bilan kirgan ilg’or tafakkurli oqimning milliy matbuotni shakllantirishdagi buyuk xizmati alohida ahamiyatga ega. Ular matbuotni millatning umumdarsxonasi, fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo’lida xizmatchi bo’lmog’i uchun baland tudtilar. Gazetalar orqali xalqni keng tafakkurli bo’lishga, atrofga ochiq nazar bilan boqishga o’rgatish, ularni ma’naviyatli, ma’rifatli qilishdek ezgu maqsad yo’lida bir vosita deb qarashdi.

Yirik jadidshunos Begali Qosimov “Jadidlik ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy harakatdir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning shunga qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg’onish ideologiyasi bo’lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash olib bordi... U madaniy harakat ham edi – adabiyotni yangiladi, matbuot



va teatrchilikni yo’lga qo’ydi, maorifda esa “yangi maktab konsepsiyasi” bilan chinakam inqilob yasadi”, deydi.

Turkiston jadidlarining dasturi “hurriyat, ozodlik, tenglik, adolat, haqiqat” kabi muhim g’oyalarni o’zida ifoda etdi. Eng avvalo, mamlakatda qoloqlik va xurofotni yengish; taraqqiyotning yangi usullarini yaratish, milliy davlatchilik boshqaruv tizimini barpo etish; konstitutsion hokimiyat asosida erkin jamiyat tuzishdan iborat edi. Toshkent-da birinchi o’zbek advokati Ubaydulla Asadullaxo’jayev bosh muharrirligida chop etilgan “Sadoyi Turkiston” gazetasi esa jadidlar tuzgan Turkiston Muxtoriyati konsepsiyasining g’oyaviy minbari bo’lgan.



Boshlanishi 1-sahifada.

Ana shunday muhit havosini tuyib voyaga yetayotgan Mirxalil mehnatda pishdi, tashkilotchilik hadisini ola boshladi. Otaning savdoda jonbozligi bola ongida tijorat ishlari, tartib-intizom, shuning barobarida ta'limga bo'lgan ehtiyojni kun sayin oshirib borardi.

Mirxalil dastlab qorixonada savod chiqardi. Uning kelajak yo'lini belgilagan asosiy buriilish 1914-yilda sodir bo'ldi: bolakay atqoli o'zbek ma'rifatparvari, jamoat arbobi Abdulla Avloniy rahbarligidagi yangi usul maktabiga o'tib, yangicha tahsil ola boshladi. Degrez mahallasida joylashgan mazkur maskanda Mirxalil jadidlik g'oyalari bilan tobora yaqindan tanishib, diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egalladi.

Avloniy kabi ma'rifatparvar ustozlar ta'sirida shakllangan bu ruhiy-ma'naviy dunyoqarash unda jamiyatni o'zgartirishga bo'lgan mas'uliyat tuyg'usini ham uyg'otgan edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda siyosiy-ijtimoiy muhit keskin o'zgargan bo'lsa-da, ma'rifatparvarlar, jumladan, siyosiy qarashlari shakllanib bo'lgan Mirxalil Karimov ham yangi vaziyatda faoliyatini takomillashtirish yo'llarini izladi. "Maktabda o'qimoq kerak, ammo maktabdan chiqqandan keyin yanada ko'proq o'qish kerak" degan hayotiy haqiqat qahramonimizning shiori ediki, u ilmni najot bildi, jamiyat rivoji ta'limda ekanini angladi. Biroq... ana shu anglovlar natijasi nima bo'ldi, deysiz, aziz o'quvchi?

...Mirxalil Karimov 1919-yili o'n yetti yoshida Toshkentdagi uch oylik o'qituvchilar tayyorlov kursini yakunlab, yangi usuldagi o'zbek maktabini tashkil etadi. Maktabda 1921-yilgacha rahbarlik qiladi. Bu tajriba uni xalqqa nafaqat pedagog sifatida tanitdi, balki jamiyatdagi o'rinni mustahkamlab, mas'uliyat tuyg'usini yanada kuchaytirdi.

O'sha yili u faol jamoat arbobi, jurnalist Said Ahroriy boshchiligidagi "Izchilar to'dasi" tashkiloti a'zolari safiga qo'shiladi. Mazkur tuzilma o'z vaqtida Turkistondagi jadidlar faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim o'rin tutgan. Tashkilotda u Munavvar qori Abdurashidxonov,



Salimxon Tillaxonov
(1890–1931)

Salimxon Tillaxonov va G'ulom Ikromov bilan suhbatlar davomida ma'rifatparvarlik g'oyalari yanada chuquroq anglab boradi.

Shu tariqa, qahramonimiz 1921-yildan e'tiboran turli davlat va jamoat tashkilotlarida ishga keng jalb etila boshlaydi. Dastlab, Toshkentdagi pochta idorasida, so'ngra aloqa uyushmasida xizmat qiladi. 1923-yildan uning mehnat faoliyati Kasaba uyushmalari ittifoqi, 1926-yildan esa Samarqanddagi "O'zbekiston sovet kasaba uyushmalari ittifoqi"da davom etadi.

1926–1930-yillar oralig'ida u VSSPS (Kasaba uyushmalari Butunittifoq Markaziy Kengashi)-ning O'rta Osiyo byurosi rahbari o'rinbosari bo'lib ishlaydi. Ayni damda ushbu lavozim Mirxalil Karimov uchun millat manfaatlarini keng qamrovda istifoda etish imkoniyati ham edi. U o'z faoliyatida mahalliy mutaxassislarni tayyorlash, ularning ona tilida ish yuritishiga sharoit yaratish, turkiy xalq vakillarini ruslashtirish siyosatidan asrab qolish kabi dolzarb masalalarni kun tartibiga qo'ygan.

1925-yil oxirlariga borib uning jadidlar safidagi faoliyati yangi bosqichga ko'tariladi. U "Milliy istiqlol" deb nomlangan maxfiy siyosiy tashkilotga a'zo sifatida qabul qilinadi. Tashkilot a'zolari jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, milliy siyosatdagi ziddiyatlar, markazdan yuritilgan zo'ravon mafkuraviy bosimlarga qarshi erkin fikr bildirishar, maslakhdash

ziyolilarni qidirib topib, aloqa o'rnatar va mavjud tartibni huquqiy, ma'naviy jihatdan asoslab tanqid qilishar edi.

Tashkilot safidagi faoliyati davomida Mirxalil Karimov o'zini amaliy harakatlarda ham tashabbuskor, mas'uliyatli shaxs sifatida namoyon etgan. Uning bu xislatlari 1926-yilda jadid bobomiz Abdulla Qodiriyning himoya qilish bilan bog'liq voqealarda yaqqol ko'rinadi.

Gap shundaki, o'sha yilning iyun oyida "Mushtum" jurnalida "Yig'indi gaplar" maqolasi chop etilgach, Abdulla Qodiriy davlat arboblari o'bro'sizlantirganlik ayblovi bilan hibsga olinadi. Bu voqea jadidlar orasida jiddiy xavotir uyg'otadi. Shu paytda Samarqandda xizmat safarida bo'lib turgan Mirxalil Karimovga Salimxon Tillaxonov maxsus maktub yo'llaydi. Maktubda Qodiriy ishi bo'yicha kutilgan sud jarayoni haqida ma'lumot keltirilib, jarayonda jadid ziyolilari ishtirokini keng ta'minlash zarurligi ta'kidlangan. Unda bayon qilinishicha, "Julqunboyga (ya'ni Qodiriyga) qarshi qo'yilgan ayblov hech qanday asosga ega emas va amalda bo'lgan "Matbuot erkinligi to'g'risidagi" qonun hujjatlariga butunlay ziddir".

Mirxalil Karimov tezda harakatga tusharkan, bu holatni jadidlar va yoshlar orasida yoyinlaydi hamda Qodiriyga nisbatan bo'layotgan nohaqliklarga jim qarab turmaslikka chaqirib, sud majlisiga haqiqatparvar kishilarni jalb etish uchun tashkiliy ishlarga yeng shimaraadi.

1926-yil 16-iyun kuni Samarqandda bo'lib o'tgan sudda Qodiriy ikki yilga qamoq jazosiga hukm qilinadi. Oradan bir kun o'tib, hukumat yozuvchini ozod qilish haqida qaror chiqaradi. Voqean, bu jarayon jadidlar birdamligi, ma'rifat va adolat yo'lidagi sa'y-harakatning amaliy natijasi edi. Shu holatlar ortidan, keyinchalik hibsga olingan Salimxon Tillaxonovdan tergov paytida Mirxalil Karimov haqida so'ralganida u shunday deydi: "O'zbek xodimlari orasida ish

faoliyati jihatidan ko'pchilikdan ustun turadi. U har bir ishga aql bilan yondashadi, uning mohiyatiga chuqur yetib boradi va natijalarini oldindan hisobga oladi".

1930-yillarga kelib, jadidlar faoliyati sovet hokimiyati nazarida tobora xavfli tus ola boshladi. Milliy o'zlikni uyg'otish, ona tilida ta'lim berish va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan har qanday sa'y-harakat o'sha



davrdagi totalitar rejim tomonidan ta'qib, tahdid va jazoga sabab bo'lardi. O'shanday qaltis vaziyatda Mirxalil Karimov kabi shaxslarning har bir harakati, har bir so'zi alohida nazorat ostida bo'lishi shubhasiz edi.

1930-yil 17-iyun kuni Mirxalil Karimov Samarqand shahrida xizmat safaridalik paytida temiryo'l vokzalida NKVD xodimlari tomonidan hibsga olinadi. Jarayon mutlaqo kutilmagan holda ro'y berib, unga hech qanday rasmiy ogohlantirish yoki jinoiy ish ochilishiga oid asosiy hujjatlar taqdim etilmaydi. U biror gapso'zsiz zumda Moskva – Butirka qamog'iga olib ketiladi...

Keyinchalik akademik Naim Karimov "Cho'lpon. Ma'rifiy roman" asarida qatag'on qurboni, jadid qahramonimiz hayoti haqida qiziq, ham ayanchli ma'lumotlarni kel-

tirib o'tadi. Unda tasvirlanishicha, Mirxalil Karimov jadid safdoshi Salimxon Tillaxonov bilan dastlab Toshkent qamoqxonasida, keyin Moskvadagi Butirka qamoqxonasining 30-kamerasida so'nggi kunlarini o'tkazar ekan, shoir Cho'lpon haqida suhbatlashishadi: "30-kameradagi boshqa mahbuslar Cho'lpon sha'niga qanchalik malomat toshlarini otmasinlar yana bir zumda, o'zo'zidan uni maqtashga kirishib, dillariga harorat berib turadigan she'rilaridan o'qishar, uning ajoyib shoir, benazir dramaturg ekanligidan iftixor hisiga to'lar edi. Mirxalil Karimov esa Cho'lponni Pushkin va Bayronga muqoyasa qilib, uning xalq shoiri unvoniga bir emas, hatto ikki bora munosib ekanligini shavq-zavq bilan aytardi".

Shugina tasvir nafaqat bir ziyolining so'nggi hayot lahzalari, balki butun jadidlik harakatining o'lmas ruhi aks etgan oyinadir. Qamoqxona devorlari ortida ham ma'rifat haqida gapirish, fikr orqali ruhni tirik saqlash Mirxalil Karimov kabi shaxslarning ichki qudrati, ma'nan barkamolligini namoyon etadi. Biroq shunday qat'iyat, jur'at, mardonavorliklari ortidan ham qamoqdagi bir guruh mahbuslar RSFSR Jinoyat kodeksi 58-moddasining turli bandlari bilan jazoga tortiladi.


1931-yil 25-aprel. Taassufki, otuvga hukm qilingan o'n besh nafar mahbus orasida jadid Mirxalil Karimov ham bor, o'shanda u boryo'g'i 29 yoshni qarshilagan edi.

ILDIRGI: *Qahramonimizning rafiqasi Olimaxon va uch farzandi "xalq dushmani"ning oilasi sifatida butun umr ta'qibda yashadi. 1989-yilda, siyosiy qatag'onlar qayta ko'rib chiqila boshlaganda, sud hujjatlarida Mirxalil Karimovga nisbatan qo'yilgan ayblovlar asossiz ekan, jazoga noqonuniy ravishda tortilib, nohaq qatl etilgani rasman tan olindi.*

Ammo....

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Nasriddin Shoabdurusulov (Nazir Faxriddinov) – 1898-yil 4-mayda Sirdaryoda tug'ilgan. Otasi oktyabr to'ntarishiga qadar Toshkent va Moskva vokzallarida taniqli kommersant bo'lgan. 1907–1910-yillarda musulmon maktabida o'qigan. 1910-yildan 1914-yilgacha rus-tuzem maktabida tahsil olgan. 1918-yilda partiyaga a'zo bo'ladi. 1920-yili o'qituvchi, 1921-yili xalq maorifi mudiri, 1922-yil GPUning Sochi militsiya boshlig'i o'rinbosari, Sirdaryo oblasti ijroiya komiteti raisi, Turkiston ijtimoiy ta'minlash xalq komissari, Xorazm kompartiyasi Markaziy komiteti ikkinchi kotibi, Xorazm revolyutsion komitet a'zosi, O'zKompartiya Markaziy Komiteti instruktori, Toshkent oblasti partiya komiteti targ'ibot-tashviqot bo'limi mudiri, Toshkent oblast ijroiya komiteti raisi bo'lib ishlagan.

1928-yil aprelda Moskvadagi Sverdlov nomli Kommunistik universitetga o'qishga yuborilgan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1937-yil 18-avgustda hibsga olingan. "Milliy ittihad"ning sobiq a'zosi sifatida ayblanib, SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda 1938-yil 4-oktyabrda bo'lib o'tgan sessiyasida otuvga hukm qilingan.

Saydulla Mirzayev – 1892-yili Buxoro okrugi Xonqa qishlog'ida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1930-yil 11-mart kuni Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi vakolatli vakilligi tomonidan hibsga olingan. U "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti faoliyatida ishtirok etganlikda ayblangan.

Saydulla Mirzayev 1930-yil 16-aprelda RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-qismi 2-bandida nazarda tutilgan jinoiy harakatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilib, "Uchlik" qarori bilan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. 1932-yil 7-noyabrda jazoni o'tash uchun Komi ASSRdagi Uxta-Pechora mehnat-tuzatuv lageriga jo'natilgan.

Turg'unpo'lat Isaboyevich Qirg'izov – 1899-yili Namangan shahrida tug'ilgan. 1918-yili sentyabr oyidan qizil armiya jangchisi, Namangan musulmon partizanlar drujinasi komandiri, V.I.Lenin nomidagi Turkiston harbiy instruktorlar maktabi kursanti, Maxsus Xorazm o'qchi bataloni rota komandiri, Xiva shahri va Xiva rayoni gamizoni boshlig'i, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Harbiy vaziri kotibi, Xorazm Inqilobiy harbiy kengash a'zosi, V.I.Lenin nomli Birlashgan O'rta Osiyo harbiy lageri, 250-o'qchi shtabi boshlig'i vazifalarida faoliyat ko'rsatgan.

1930-yilda OGPU tomonidan "Milliy ittihad" aksilinqilobiy milliy tashkiloti tarkibida faoliyat ko'rsatganlikda, qizil armiya safidan chiqib Osoaviyaxim o'lka soveti markaziy o'quv kombinatida (Toshkent) dars berganlikda ayblangan.

1937-yil 29-mayda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan qamoqqa olinadi. 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasi Toshkentdagi sayyor sessiya qarori bilan otuvga hukm etilgan.

Ergash Boyhamboyev – 1900-yili Namangan shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1923-yildan sovet partiyasi organlarida ishlagan va keyinroq O'zbekiston sanoat kengashi raisi vazifasida ham xizmat qilgan.

"Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgani uchun 1937-yil 8-noyabrda O'zSSR Ichki xalq komissarligi 4-bo'limi tomonidan hibsga olingan. "Milliy ittihad"ning faol a'zosi, bosmachilar to'dasi qo'rboshisi Omon polvon bilan aloqada bo'lganlikda, Marg'ilon shahar partiya komiteti kotibi sifatida kolxozlarga quloq va bosmachi unsurlarni joylashtirganlikda, sovet hokimiyati organlari tarkibidagi tuhmatchilarga qarshi kurash olib borganlikda, Akmal Ikromov va Sodikjon Boltaboyevning alohida yordamiga tayanganlikda ayblanib, 1937-yili 11-noyabrda 10 yil mehnat tuzatuv lagerlariga hukm etilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi son).

UMUMDARSXONASI


Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Hamza, Mirmuhsin Shermuhammedov, Abdulla Qodiriy, Nushiravon Yovushev, Fuzail Jonboyev, Hoji Muin, Shokirjon Rahimiy kabi qalam ahli "Matbuot – bosh islohotchi bo'lishi kerak, matbuot – millat o'ynasidiri, ma'rifat – millatning hayot-mamoti, huquqiy savodxonlik – taraqqiyotimiz asosi" kabi ilg'or g'oyalarni ilgari surdi. Jadidlar milliy matbuot sahifalarida: "...har bir mamlakat xalqining taraqqiy va tanazzuli, hayot va mamoti maktab masalasiga bog'liqdir" yoki "Bizning bu jaridamiz Turkiston maktablarining ahvolini isloh va huquqni mudofaa maqsadi-la chiqarilganlig'i uchun bunda eng ko'b bahs qilinadurg'on masala va eng muhim sanaladurg'on maqola shul maktab to'g'risida bo'lur", deya aniq maqsad va maslagini e'lon qildi. Ular qashshoqlik, fikriy turg'unlikni ma'rifatsizlik oqibati deb bildilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov birinchilardan bo'lib, yangi usul maktablari tashkil etdi va o'quvchilar uchun darsliklar yozdi. Ikkinchi

qadam milliy adabiyot masalasi bo'ldi. "Xalq foydalanurlik yangi asarlar yo'q. Nashr qiluvchilar ham yo'q. Yoshlarimizdan XX asr mevasini kutmak uchun butun asoslari ila isloh qilinmak lozim", deya shakllanajak yangi adabiyot maydoniga katta umid bilan qaradilar.


Uchinchi muhim masala milliy matbuotni yo'lga qo'yish va rivojlantirish masalasi bo'ldi. Matbuotga tayangan jadidlik harakati mahalliy aholi vakillari orasida jamiyat boshqaruvini yaxshi tushunadigan ziyolilar qatlamini shakllantirdi. Ular "Ehtiyojotimizni muzokara qilmak maqsadi ila matbuot sahifalari ochildi. Holbuki, millatda bo'lgan qo'rqinchli kasalliklarni har vaqtda anglab, alarga shifo izlamak milliy matbuot vazifasidir. Uning huquqiga tajovuz qilmakka hech kimning haqi yo'qdur", deya matbuotning muhim vazifasini belgilab berishdi.

1907-yil 11-noyabrda "Tujjor" gazetasining 11-sonida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Gazet nadur?" sarlavhali maqolasi chop etilgan. Muallif maqolada



matbuotning, xususan, gazetalarining jamiyat hayotidagi muhim o'rinni chuqur tahlil etgan. Behbudiy chop etilayotgan milliy nashrlar butun bir millatniki ekanligini alohida ta'kidlab, sarmoyador boylardan ko'mak va yordam berishlarini so'raydi: "Majalla bizniki emas, millatnikidir. So'ylanaturgan so'zlar shaxsiy emas, umumiydur, g'ururiy emas, diniydur".

E'tiborli jihat, jadidlarimiz milliy matbuot zimmasiga "Musulmon jaridasining vazifasi o'zining sahifalarini millat uchun ahamiyati



Biz Turkistoniylarg'a g'azeta o'qimoq u qadar rasm va taomil emas. Agar g'azeta o'qimoqning manfaatini bilsa eduk yoki g'azeta o'qub ma'nosig'a tushunsa eduk, hatto bir nafas o'lsun g'azeta mutolaasidan voz kechmas eduk.

HOJI MUIN



MAKTUB

OFATGA AYLANGAN ODATLAR

O'zbekistonda to'ylar, oilaviy tantanalari, ma'rakalar va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish bo'yicha parlament va jamoatchilik tomonidan faol ish olib borilayotgani haqida eshitib xursand bo'ldim. Nega deysizmi? Chunki bu turlik hashamlardan biz – tojikistonliklar ham toza kuyganmiz. Har gal biror davrada to'y xarajatlaridan gap ochilsa, bir voqea esimga tushaveradi.

...2007-yilda Asht nohiyasidagi Oshoba qishlog'ini sel olgan edi. Hamkasbim bilan falokat joyiga yetib bordik. Odam-

deb uning qarorini qo'llab-quvvatladik. O'sha kunlari Tojikiston hukumatining tantana, to'y va boshqa marosimlarni tartibga solish borasidagi qonuni e'lon qilingan edi. Tushungan odamning sada-qasi ketsang arziydi.

Suhbatimizga oshobalik Umrzoq Matmatqulov ham qo'shilib, yosh otaning tashabbusiga asoslar keltirdi:

– Qonun qabul qilinguncha to'y o'tkazish og'ir edi. Elga osh beraman deb qora sochlar oqarib, oqlari to'kilib ketardi. Osh deganingizga ham besh yuz-ming nafarcha odam aytilardi. Yana maslahat oshi, sabzito'g'rar, qariyalar uchun ziyofat, erkak oshi, xotin oshi degan

to'rvasi yirtilganlar esa o'z yog'iga o'zi qovrilib qolaveradi.

Eskidan azador xonadonda uch kunga dovur qozon osilmasdi. Bora-bora tobut uydan chiqishi bilan qo'y so'yilib, dasturxon yoziladigan bo'ldi. Shunaga paytda kimning ko'ngliga ovqat sig'ar ekan-a'?

Yuqorida tilga olingan yangi qonunning qabul qilinishi natijasida Tojikistonda to'y va marosimlarni o'tkazish tartib-qoidolari belgilandi. Jumladan, xatna to'yi oila davrasida mol so'ymasdan, san'atkorlar o'tkaziladi. Nikoh to'yida ikki tomondan 200 kishi va to'y ziyofati – nikoh kechasiga 150 kishi qatnashadi. To'ydan oldin va keyin bo'ladigan barcha marosimlar taqiqlangan. "Kuyovchaqirdi" va "kelin yuz ochdi" bundan mustasno. Sharti: qatnashuvchilar 15 kishidan oshmaydi. Bazm uch soatdan ortiq davom etmaydi. Pul qistirish yoki sochish taqiqlanadi.

Haj va umraga kuzatish va kutib olish faqat oila davrasida o'tkaziladi. Hoji ziyorati, "hoji chaqirdi", "hoji oshi" va boshqa ma'rakalar o'tkazish, hadya berish, hoji yashaydigan mahallani bezatish man etilgan. Axir kim ibodat qilsa o'zi uchun qiladi, xolis Alloh rizoligini ko'zlaydi. Uni ko'z-ko'z qilishga nima bor? Taniqli o'zbek shoiri Sadriiddin Salim Buxoriy topib aytganiday, "Tamannolar qilursan haj qildim deya, qabul bo'ldi yo bo'lmadi, Xudo bilar".

Ya'ni tarixni olsak, jadidlar ham isrof ustiga qurilgan urf-odatlarni qoralagan. To'y va boshqa marosimlarning taraqqiyotga to'sqinlik qilayotganini ta'kidlab, bu sarf-u xarajatlar bolalarning ilm egalashiga tasarruf etilsa, ma'qul emasmi deb kuyungan. Ma'rifatparvar shoir Tavallo quyidagi sarflarni bundan deyarli 110 yil muqaddam yozgan:

*Simsiz birovlar so'ylashib,
millat g'amini o'ylashib
yurganda, siz to'y-to'ylashib,
hech bir uyolmayisiz hanuz...*


So'zimni ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning bir iqtibosi bilan yakunlamochim: "Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadri bilmakni aytilur. Mol qadri birluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas".

Ya'ni, eng yaxshi sarmoya – ilmga yo'naltirilgan sarmoya. Xulosa o'zingizdan.

O'rinboy USMON
Tojikiston Respublikasi,
Xo'jand shahri

YANGI NASHR

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi muassisligidagi "Vatan" ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy jurnalining joriy yildagi navbatdagi soni chop etildi.



“VATAN” ICHRA SAFAR AYLA...

Nashrning har bir nomeri nafaqat ziyolilar davrasi, balki keng o'quvchilar ommasini tomondan ham katta qiziqish bilan qarshi olinmoqda. Sonda songa mavzular geografiyasi kengayib, materiallar salmog'i ortib borayotgani ham bor gap. Bugungi zukko o'quvchining savollariga javob bo'la oladigan chuqur tahlil, aniq faktlarga asoslangan original maqolalar, suhbatlar va tarjimalar, o'ziga xos dizayn hamda sifatli fotosuratlar – barchasi yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi.

Jurnalni shunchaki varaqlab bo'lmaydi. Yaxshi jurnalni o'qish bu – mehnat. Yangi sonda o'rin olgan "Mustaqillik odami" maqolasi ana shunday aqliy mehnat talab qiladigan ko'lamli keng materiallardan biri. Unda taniqli jurnalist Karim Bahriyev jiddiy savollarni o'rtaq tashlaydi. Ularga donishmandlik bilan javob beradi, javoblarni mantiqan asoslaydi.

"O'zbekchilik: milliy iftixormi yoki taraqqiyotga to'siq?", "Arab xalifasi nega

turklarning do'ppisini kiygan?" sarlavhali materiallar tarix va bugun o'rtasiga ko'priklarni solib, mulohaza yuritishga undaydi. "Unutilgan afsonalar" tadqiqoti esa mifologik qahramonlarning zamonaviy qiyofalari haqida hikoya qiladi.

XX asrdayoq sun'iy intellekt ustida ishlagan o'zbek olimi, algoritim ilmi darg'asi Vosil Qobilov haqidagi material "O'zbekiston akademiklari" ruknidan joy olgan.

Dunyoning eng mashhur universitetlari olimlarining Markaziy Osiyo tarixini o'rganish maqsadida olib borgan izlanishlari, erishilgan natijalar, istiqboldagi vazifalar va sohaga doir muammolar haqidagi dolzarb fikrlari ham jurnalxonlarga bir olam zavq ulashishi shubhasiz.

2-sonda shu va boshqa mavzudagi 20 dan ortiq ilmiy, badiiy, tarixiy maqolalar, tarjimalar, badialar, taqrizlar bilan tanishishingiz mumkin. "Vatan" ichra safarin-giz mazmunli o'tishiga tilakdoshmiz!

Gulruhbegim ODASHBOYEVA



larning ruhi so'nik. Tushkunlik ujoyga achinishdan emas, halok bo'lgan hamqishloqlariga qayg'urishdan kelib chiqqan. Asriy daraxtlarni ildizi bilan qo'porib, oqizib ketgan sel o'n ikki kishining umriga zomin bo'lgan edi.

Bir xonadondan fотиha o'qib chiqar ekanmiz, o'ttiz yoshlar chamasidagi yigit bilan gaplashib qoldik. Uning oilasi ofatdan zarar ko'rmagan ekan, lekin qishloqdoshlarining dardiga sherik. Gapni o'zidan eshitib: "Men bu odamlardan qarzdorman. Har biri yaxshi-yomon kunimda yelkadosh bo'lib turgan. Ikki qizdan keyin o'g'il ko'rgandim, kenjamning qo'lini halolab, elga osh bermoqchi edim. Endi to'yga ataganimni qiyinagan oilalarga bo'lib bermoqchimam. Shunga nima deysiz, odamlar gapirsa gapirar, bir kun charchar axir..."

"Mana bu o'g'il bolaning gapi bo'libdi",

dahmazalari ham bor edi-da. O'g'lining qo'lini halolaydigan odam to'rt yuz-besh yuz kilolik buqa so'ygani yetmaganday, har bir xonadonga o'ltiradigan non tarqatishi shart edi! Ofatga aylangan bu odatdan qishloqdan ko'chib ketganlar ham qutula olmas, Oshobaga kelib to'y qilib berishi shart edi. Endi nikoh to'yining qanday bo'lishini o'zingiz tasavvur qilib olavering...

O'ziga to'y oilalarning to'yiga bo'y-lashaman deb qo'l uchida kun ko'rayotgan oilalar qulog'igacha qarzga botardi. Qarz deganining ketidan yetishmovchilik, janjal, ur-sur, ajrim yetaklashib kelardi.

Ana shunday muammolar girdobi-ga tushib qolganda bir vaqtlar "Orzu-havasing bormi? Bir marta to'y qilasan: yondirmaysanmi!" deya pishang bergan vallomatlarini yerning tagidan ham topa olmayisiz. Qaytaga o'shalar birinchi bo'lib malomat toshini yog'diradi. To'y qilib,

TILBILIM



TO'RTKO'LNING CHORSUGA ALOQASI

To'rtko'l shahrining nomini ko'pchilik "to'rtta ko'l"dan kelib chiqqan deb o'ylaydi. Ya'ni, shaharda to'rtta ko'l bo'lgan va o'z-o'zidan To'rtko'l bo'lib ketgan. Juda o'rinni faraz. Yashirmayman, men ham xuddi shunday bo'lsa kerak deb yurardim. Bir qishloq yoki shahar hududida to'rtta tabiiy suv havzasi – ko'lning paydo bo'lish ehtimoli past ekanini hech xayolga kelmagan.

Aslida-chi? "Devonu lug'otit-turk"da aytilishicha, to'rtko'l (törtkül) – asli to'rtburchak degan ma'noni anglatadi. Vikipediyadan To'rtko'l shahri tarixiga oid ma'lumotni o'qib ko'rsam, bu shahar rostdan ham to'rtburchak shaklda bunyod etilgan ekan.

Eski shaharlarimizning markaziy bozor joylashgan hududi Chorsu deb atalgan. O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, "chorsu" forscha so'z bo'lib, to'rt tomon, to'g'ri burchakli kvadrat ma'nolarini bildiradi. Tarixiy shaharlarda usti yopiq savdo-sotiq joyi, ya'ni bozorning markaziy, rastalar kesishgan o'rni "Chorsu" deyilgan. Demak, to'rtko'l va chorsu so'zlarining lug'aviy ma'nosi deyarli bir xil. Faqat biri oddiy bozor hududiga o'z nomini bergan bo'lsa, ikkinchisi ma'no jihatidan qulochini kengroq yozib, shahar maqomiga erishgan.

Elmurod NISHONOV

TARMOQLARDA NIMA GAP?

BLOGGER

Bugun axborot maydoni shu qadar kengayib ketdiki, go'yo hamma jurnalistga aylanib qolgan. Ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga post yozgan, video joylagan, fikr bildirgan ayrimlar o'zini blogger hisoblab qolgan. Shu bilan kifoyalansa-ku, mayli, lekin ular o'zlarini jurnalistlar qatorida ko'radi. Bloggerlar soni ortib borayotgani – zamonaviy tendensiya. Bunga hech kim qarshi emas. Marhamat! Ammo har kim haddini bilmog'i lozim emasmi? Jurnalist va blogger o'rtasidagi tafovutni farqlamaslik turli chalkashliklarga sabab bo'lmoqda. Bunga esa marhamat deb bo'lmaydi!

Jurnalistlik, bu – kasb. Bloggerlik esa mustaqil faoliyatning bir turi. U ko'proq shaxsiy uslubda, tezkor va erkin formatda ishlaydi.

"Onlayn-platforma va veb-saytlar foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasida esa bloggerlarga shunday ta'rif beriladi: "blogger – o'z akkauntida

yoki ommaviy hamjamiyatda ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa tisdagi kontentni, shu jumladan, onlayn-platforma foydalanuvchilari tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs (onlayn-platforma foydalanuvchisi).

Buning ijobiy tomoni – muammolarni tez yoritadi, ma'lum soha bo'yicha tizimli material berib boradi. Biroq chegarani utizgan, reyting uchun shantaj yo'lini tanlaganlar ham yo'q emas. Ular uchun "layk", "prosmotr" va "rek" hamma narsadan ustun. Axborot bozorida o'zgani ham, o'zini ham sotishga hozir. Chunki o'z sahifasini faollashtirib olgach, reklama orqali pul ishlaydi, kimlargadir bosim o'tkazadi va hokazo.

Deylik, soxta va shantajchi bloggerlar Xushnud Xudoyberdiyevga o'xshab ta'lim va huquq, Nurbek Alimov kabi tarix, falsafa va siyosat, Otabek Bakirovdek iqtisodiyot kabi asosan muayyan sohani keng va chuqur yoritib borsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Buning uchun mehnat qilish, bilim olish, zahmat

HAM BAYRAMNI NISHONLAYDIMI?

YO NISHONGA OLADIMI?

chekish kerak. Ular esa quruq gap, baqir-chaqir, chiroyli so'z o'yinlaridan nariga o'tmay, o'ta olmay, o'zidan supermen yashashni ma'qul ko'radi. Taassuf!

Bunda professional jurnalistika vakillarining ham aybi bor. Ba'zi tahririyatlar o'zgarayotgan davrga moslasha olmayapti. Veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan yetarlicha foydalana bilmayapti. Afsuski, buning uchun harakat ham qilmayotgan tahririyatlarning borligi kishi dilini xufton qiladi.

Bu gap bilan jurnalistlar va bloggerlarni ikki qutbga ajratib qo'yimoqchi emasmiz, aslo. Aslida bizga to'qnashuv emas, hamkorlik kerak. Jurnalist – chuqur bilim, tajriba va mas'uliyat egasi. Blogger esa – tezkorlik, AKT xabardorligi, shijoat va yengil uslub timsoli. Ikkalasi bir-birini to'ldirsa, yurtimiz axborot maydoni yanada sog'lom, boy va xalqona bo'ladi.

Oldinda jurnalistlarning kasb bayrami – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni. Ushbu kunda so'z erkinligi, haqiqat va adolat uchun harakat qilayotgan barcha haqiqiy jurnalistlar va mas'uliyatli bloggerlarni tabriklayman! Qadrii yurtdoshlarimizdan esa yuqoridagi toifalarni bir-biridan ajratib olishlarini iltimos qilaman. Zotan, so'zdan so'zning farqi bo'lganidek, axborot yetkazuvchilar orasida ham farq bor.

Otabek ISROILOV
Facebook



“G'azeta har bir millatning tarjimoni, tili. G'azetasiz millat tilsizdur. Zero, tili va adabiyoti yo'qdur. Har kimning dunyoda tiriklik (hayot) turmog'i uchun havo bilan suv qandog' lozum bo'lsa, har qavmning hayoti va saodati uchun ul millatning matbuoti va adabiyoti bo'lmog'i lozim.

Ashurali ZOHIRIY

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLILAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 655
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 942
Lotin yozuvida – 11 713
Media kuzatuvchilar – 49 749
Buyurtma: G – 640.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 22:30
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz